Tadqiqot.uz

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA


YANGI O'ZBEKISTON: ILMIY TADQIQOTLAR

CONFERENCES.UZ

2026

DAVRIYLIGI: 2018-2026

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN MOBIL TELEFON



Мартин Купер (1973)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ

NOYABR

№94

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР 1-ҚИСМ

НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН: НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ЧАСТЬ-1

NEW UZBEKISTAN: SCIENTIFIC RESEARCH PART-1

ТОШКЕНТ-2026

УЎК 323(575.1)(063)
КБК 66.3(5Ў)я43
И-18
DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2026]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 94-кўп тармоқли илмий маърифий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2026 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2026. – 82 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегияси — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: — илмий изланиш ютукларини амалий-тажриби жиҳат йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.
Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талабалар-иштирокчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилиб бориб, унда таълим тизимида илғор замонавий ёндашувлар, натижалар, муаммолар, ечимлар, статистик вазиятлар ва илмий-тараққиётнинг истиқболли режалари таҳлил қилинади конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонови, ю.ф.д., доцент

1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -
Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -
Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар –
Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни-
Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви-
Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

6.Журналистика-
Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –

Самигова Умида Хамидуллаевна (“Kinder land of Asia” НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8.Адабиёт-
PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -
Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -
Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

11.Жисмоний тарбия ва спорт-
Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)
14.Тасвирий санъат ва дизайн-
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт-
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -
Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари -
Доцент Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар –
Зупарова Зулфия Ахрор қизи DSc (Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, фармацевтика фанлари доктори)

19.Фармацевтика
Жалилов Фазлиддин Содиқович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

20.Ветеринария
Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

21.Кимё фанлари ютуқлари -
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -
Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович "ТИИМСХ"

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -
Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География- Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси
© Tadiqiqot.uz

Page maker/Верстка/Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакции журнала.
www.tadqiqot.uz
ООО Tadiqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; E-mail:
info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of
www.tadqiqot.uz
Tadiqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; E-mail:
info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШАЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

BOY BERILGAN ISTE'DOD – USMON NOSIR HAYOTINING NOMA'LUM SAHIFALARI

Ahmadjonova Moxlaroyim Akmal qizi
Namangan davlat universiteti Jahon tillar fakulteti
1-bosqich talabasi
Moxlaroyim551@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr o‘zbek she’riyatining yorqin namoyandasi, Stalin qatag‘oni qurboni Usmon Nosir hayoti va faoliyatining kam o‘rganilgan hamda munozarali sahifalari tahlil qilinadi. Maqolada shoirning yoshlik yillari, ijodiy faoliyati, millat ravnaqiga qo‘shgan xissasi, hibsga olinishi, tergov jarayonlarida unga qo‘yilgan nohaq ayblovlar va Magadan hamda Kemerovo lagerlaridagi og‘ir surgun yillariga oid manbalar atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada Usmon Nosirning mahbuslik yillaridagi qiyin sharoitlarda ham ijod qilishni to‘xtatmagani, uning yo‘qotilgan deb qaralgan qo‘lyozmalari va fojiali o‘limi sabablari xolis adabiyotshunoslik nuqtai nazarida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Usmon Nosir, qatag‘on siyosati, Magadan, yo‘qotilgan qo‘lyozmalar, surgunlik davri, lagerdagi hayot.

XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida takrorlanmas poetik ovozga ega bo‘lgan Usmon Nosir shaxsiyati hamda uning boy badiiy merosi milliy ma’naviyatimizning ajralmas qismini tashkil etadi. Serqirra shoir o‘zining otashin she’riyati bilan millat ravnaqiga va o‘zbek adabiyoti xazinasiga beqiyos hissa qo‘shgan. Biroq, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan milliy ziyolilar qatlamini ma’nan va jismonan yo‘q qilishni maqsad qilgan Stalincha siyosiy tuzum o‘zining eng jo‘shqin va betakror davrida turgan 25 yoshli Usmon Nosirni ham chetlab o‘tmadi.

Mavjud adabiyotlarda shoirning hibsga olinishiga qadar bo‘lgan poetik mahorati yetarlicha tahlil qilingan. Ammo adabiyotshunoslikda hamon ochiq qolayotgan asosiy bo‘shliq – bu shoirning 1937-yildagi so‘roq-tergov jarayoniga tegishli bayonnomalardagi ziddiyatli holatlari, shimoliy lagerlardagi mahkumlik davrida bitilgan asarlarning taqdiridir. Ushbu maqolada arxiv hujjatlari va tergov bayonnomalari asosida Usmon Nosirning hibsga olinishidagi ziddiyatli holatlarni hamda shoirning lagerdagi mahbuslik davri ijodiy faoliyatini ilmiy-tahliliy nuqtayi nazardan yoritishga alohida e’tibor qaratilgan.

Mazkur maqolada Usmon Nosirning yoshlik yillari, ta’lim olgan davri, adabiyot olamiga kirib kelishi, shuningdek, uning nohaq qamalishi va og‘ir surgundagi hayotini yoritishda tarixiy-biografik, qiyosiy-tarixiy hamda arxiv-hujjatli tahlil metodlaridan foydalanildi. Shoirning tarjimayi holiga oid arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari va zamondoshlarining xotiralarini tahlilga tortish orqali maqolada atroflicha ma’lumot berilgan.[1] Shoirning ijodiy evolyutsiyasini o‘rganishda uning ilk she’rlar to‘plami [2] va 1937-yildagi maxfiy

tergov ishi materiallari[3] o‘zaro qiyosiy o‘rganilib, hayotining so‘nggi yillaridagi fojiali voqealar xolis yoritildi.

Ushbu maqolani yozish jarayonida olib borilgan izlanishlar Usmon Nosirning mashaqqatli hayot yo‘li, bolaligi, ijod yo‘li hamda sovet totalitar tuzumi qatag‘oniga uchragan fojiali taqdirini ochib berishda muhim ilmiy natijalarni yuzaga chiqardi. Arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari tahlili shuni ko‘rsatdiki, shoirning bolaligi va o‘smirlik davri juda og‘ir kechgan. U 1912-yil 13-noyabrda Namangan shahrining Tanhog‘or mahallasida dunyoga keladi, uning otasi Mamatxo‘ja 1916-yilgi davr qiyinchiliklari va ocharchilik sababli vafot etadi. Otasidan yetim qolgan yosh Usmon onasi Xolambibi bilan birga og‘ir sharoitlarda yashab, keyinchalik oilaning Qo‘qon shahriga ko‘chishi bilan turmush tarzi o‘zgaradi. Shunga qaramay, u nihoyatda o‘tkir zehn va lirik iste’dod egasi sifatida erta voyaga yetib, o‘zbek she’riyatiga yangi nafas olib kirgan va zamondoshlari tomonidan “O‘zbek Lermontovi” deya e’tirof etilib, yuksak adabiy maqomga erishgan [4]. Jumladan, uning jo‘shqin ijodi “Quyosh bilan suhbat” (1932), “Safarbar satrlar” (1932), “Traktorobod” (1934), “Yurak” (1935) hamda “Mehrim” (1936) kabi she’riy to‘plamlarida aks etgan. Shuningdek, u “Atlas”, “Naxshab” dostonlari, “Noma’lum kishi” dramasi muallifidir. Bundan tashqari, A. Pushkin va M. Lermontov asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Shoir hayotining eng og‘ir va fojiali yillari bu uning 1937-yilda boshidan kechirgan tergov jarayonlari bo‘lib, ushbu maxfiy tergov ishi materiallari va zamondoshlarining xotiralari o‘rganilganda, shoirga nisbatan qo‘llanilgan ayblovlarning mutlaqo uydirma va sun’iy ravishda uyushtirilgani fosh etiladi. [5] Mazkur yilning 13-iyulida shoir Toshkentda “antisovet va aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti a’zosi” hamda “ratsionalistik-notsionalistik ruhda asarlar yaratgan” degan soxta ayblovlar bilan hibsga olinadi.[6] DXX (sobiq NKVD) Markaziy arxividagi №4289-sonli jinoiy ish hujjatlariga ko‘ra, tergov jarayonida shoirga nisbatan ruhiy va jismoniy tazyiqlar o‘tkazilgan, uning “Iliada” tarjimasi va ko‘plab yangi qo‘lyozmalari tintuv chog‘ida musodara qilingan [7] Tergovchilarning nohaq ayblovlariga qaramay, u o‘zining va boshqa safdoshlarining aybsizligini ko‘rsatishga urinib, jismoniy qiynoqlarga bardosh berib o‘z matonatini ko‘rsatadi. Nihoyat, 1938-yil 5-oktabrda O‘zSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi tomonidan O‘zSSR Jinoyat kodeksining 58-, 67-moddalari bo‘yicha aybdor deb topilib, 10 yil muddatga mehnat-tuzatish lageriga – surgunga hukm qilinadi.[8] Aynan ushbu tergovdagi ruhiy va jismoniy zarbalar shoirning keyingi surgunlik yillaridagi fojiali taqdiri hamda barvaqt vafot etishiga asosiy sabab bo‘ldi. Hibsga olingan Usmon Nosir dastlab Toshkent va Zlatoust qamoqxonalarida saqlangan, so‘ngra NKVD lagerlari tizimi bo‘yicha Magadan, Vladivostok hamda Kemerovo viloyatidagi Mariinsk lagerlariga surgun qilingan [9]. Stalincha qatag‘on davrida mahkumlar GULAG (1930-1960 yillardagi lagerlar bosh boshqarmasi) tizimining minglab kilometrga cho‘zilgan ulkan geografik hududlariga bosqichma-bosqich ko‘chirilgan. Shu bois Usmon Nosir ham Rossiyaning Uzoq Sharqida joylashgan Vladivostok hamda Magadan lagerlaridan G‘arbiy Sibirdagi Mariinsk (Kemerovo) lagerigacha bo‘lgan mashaqqatli surgun yo‘lini bosib o‘tishga majbur bo‘ldi.[8] Arxiv hujjatlari

shoirning ushbu lagerlardagi og‘ir jismoniy majburiy mehnat, surunkali ocharchilik va qahraton sovuqlarga qaramay ijodiy ruhini yo‘qotmaganini ko‘rsatadi [9]. Ushbu davrda yozilgan qo‘lyozmalar va she’rlarning taqdiri esa o‘ta fojiali kechgan. NKVD-lager tizimining o‘ta qattiq senzura va mahbuslarga nisbatan cheklovlari tufayli shoirning so‘nggi yillarda yozgan ko‘plab asarlari, qamoqxona kundaliklari va bitiklari maxfiy idoralar tomonidan yo‘q qilib yuborilgan yoki nom-nishonsiz yo‘qolgan [10]. Usmon Nosir 1944-yil 9-martda Kemerovo viloyatining Mariinsk shahri yaqinidagi lagerda o‘pka sili, og‘ir jismoniy mehnat va ocharchilikdan vafot etgan hamda o‘sha yerda nomsiz qabristonga dafn etilgan [11]. Keyinchalik, adolatning tiklanishi yo‘lidagi sa’y-harakatlar natijasida, uning nomi va sha’ni 1950-yillarning o‘rtalarida rasman oqlangan [12].

Xulosa sifatida ta’kidklash joizki, 1937-yildagi tergov jarayonlarida Usmon Nosirga qo‘yilgan “aksilinqilobiy millatchilik” va “sovet tuzumiga dushmanlik” ayblovlari mutlaqo soxta va siyosiy buyurtma bo‘lib, u shoir taqdirida fojiali burilish nuqtasi vazifasini o‘tadi. Ushbu tergov natijasida shoirning bebaho qo‘lyozmalari yo‘q qilindi, uning adabiy faoliyatiga majburiy chek qo‘yildi hamda so‘roqlardagi og‘ir qiynoqlar shoirning keyingi surgun yillaridagi barvaqt o‘limini muqarrar qilib qo‘ydi. Usmon Nosir hayoti va faoliyatining kam o‘rganilgan hamda munozarali sahifalari tahlil qilish shoir shaxsiyati va uning so'nmas badiiy merosini tugal hamda xolis baholashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, N. (2018). Usmon Nosir: Hayoti va ijodi. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
2. Nosir, U. (1932). Quyosh bilan suhbat [She’rlar to‘plami]. O‘znashr.
3. O‘zR DXX arxivi. 37-fond (Usmon Nosirning maxfiy tergov ishi materiallari).
4. Rahimov, A. (2022). Usmon Nosir lirikaviy evolyutsiyasi va uning surgundagi fojiali taqdiri. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 3-son, 45–52-betlar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxivi. (t.y.). Usmon Nosirning 1937-yildagi maxfiy tergov ishlari va qatag‘on materiallari. Fond 34, Ro‘yxat 1, Hujjat 12-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Xavfsizlik Xizmati Arxivi, 1937–1944
7. Karimov, N. (1993). Usmon Nosir: Hujjatli qissa. Sharq nashriyoti. 112-118-betlar
8. Qosimov, B. (2002). Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoyilik. Ma’naviyat nashriyoti.
9. Karimov, H. (2018). Qatag‘on qurbonlari: Usmon Nosir fojiasi. Toshkent: Sharq nashriyoti.
10. Rahmonov, A. (2020). XX asr o‘zbek adabiyoti fojialari. Toshkent: Fan va texnologiya.
11. Qobilov, S. (2020). Usmon Nosir hayoti va ijodiy merosi: Arxiv hujjatlari va tahlillar. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
12. O‘zR DXX arxivi. 37-fond (Usmon Nosirning maxfiy tergov ishi materiallari).

СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДАГИ ТУТГАН ЎРНИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

MEDIA ISTE'MOLINI O`RGANISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI. XORIJIY TADQIQOTLAR ASOSIDA TAHLIL

Xayrullayeva Zarina Ne'matullo qizi
"Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi bosh analtigi.
(zarinchon.@gmail.com)

Annontatsiya. Ushbu maqolada media iste'molini o'rganishning asosiy nazariy yondashuvlari va ularning ilmiy-metodologik asoslari yoritilgan. Xususan, Uses and Gratifications, Media Repertuari, Selective Exposure va Media Effects nazariyalari xorijiy olimlarning empirik tadqiqotlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli platformalardan foydalanish, axborot tanlash xususiyatlari va medianing auditoriyaga ta'sir mexanizmlari ilmiy jihatdan izohlangan.

Kalit so'zlar. Media iste'moli, media repertuari, ehtiyojlar va qoniqishlar nazariyasi, Uses and Gratifications, Selective Exposure, Media Effects, Cultivation Theory, Agenda-Setting, raqamli media, auditoriya, axborot tanlovi, media ta'siri.

Zamonaviy axborot makonida raqamli platformalar va ommaviy axborot vositalarining keng tarqalishi insonlarning media iste'moli jarayonini tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi kunda axborotni qabul qilish, izlash, tanlash va undan foydalanish jarayonlari turli nazariy yondashuvlar asosida o'rganishni talab etadi. Mazkur maqolada media iste'molini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ehtiyojlar va qoniqishlar, media repertuari, tanlanma axborot tanlovi hamda media ta'siri nazariyalari ilmiy tadqiqotlar va empirik natijalar asosida tahlil qilinadi. Media iste'molini o`rganishda turli nazariy yondashuvdan foydalanish mumkin;

Birinchi nazariya – Ehtiyojlar va qoniqishlar nazariyasi. Bu nazariyani ilk bor Elihu Katz, Jay G Blumler va Michael Gurevitch ishlab chiqqan va "Uses and Grafitications"[1] atamasini qo`llagan. Bunda shaxslar tomonidan yangilik olish, muloqot qilish, ko`ngil ochish, ma'lumot izlash va habardor bo`lish uchun turli xil saytlardan, media mahsulotlaridan foydalanishlari mumkin. Tadqiqotda Telegram, Youtube, News websites, Tik-Tok, Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari ustida tadqiqot olib boradi. Yoki Cuesta-Cambra, U., Niño-González, J. I., & De-Marchis, G. (2021). "Uses and gratifications of multiscreen news consumption among Spanish youth "Uses and Gratifications" yondashuvini empirik qo'llagan tadqiqot sifatida ketirish mumkin. Bu tadqiqot nazariyani quyidagi jadvallar asosida tushuntirib boradi. Unda 441 nafar respondent qatnashgan bo`lib asosan Ispaniya yoshlari orasida ro`rov o`tkazilgan. So'rovnoma

[1] Katz E., Blumler J. G., Gurevitch M. Utilization of Mass Communication by the Individual // The Uses of Mass Communications: Current Perspectives on Gratifications Research. — Beverly Hills: Sage, 1974. — P. 19–34.

multiekranlardan foydalanish bilan bog‘liq omillarni hamda ulardan foydalanish natijasida olinadigan qoniqishlarni aniqlash maqsadida ikki tomonlama vazifani ko‘zlagan holda ishlab chiqildi. Savollar mobil qurilmalar va multiekranlardan foydalanish hamda ulardan olinadigan qoniqishlar o‘rganilgan tadqiqotlar asosida moslashtirildi (Dias, 2016; Choi va boshq., 2009; Grellhesl va Punyanunt-Carter, 2011; Bolton va boshq., 2013). Savollar 5 ballik Likert shkalasi asosida tuzildi, bunda 1 - eng past qiymat, 5 - eng yuqori qiymatni ifodaladi[2].

Cuesta Cambra, U., Niño González, J. I. & De-Marchis, G.
Uses and gratifications of multiscreen news consumption among Spanish youth

Table 1: Sample distribution.

		Frequency	Percentage
Gender	Male	178	40.4
	Female	263	59.6
Age	18-24	252	57.1
	25-35	189	42.9
Geographic distribution	North	139	31.5
	Center	148	33.6
	West	66	15.0
	East	22	5.0
	South	66	15.0
Completed studies	No official degree, incomplete studies	6	1.4
	School graduate or Compulsory Secondary Education	32	7.3
	High school	167	37.9
	Degree of Professional Training	102	23.1
	Graduate or Bachelor	91	20.6
	Master's degree besides Graduate or Bachelor	39	8.8
	Doctorate	4	.9
Main activity currently*	Study	193	43.8
	Work as intern after completing studies	3	.7
	Part time job	34	7.7
	Full time job	97	22.0
	Active job search	30	6.8
	Not answered	84	19.0

* Main activity was defined as the activity the respondent dedicates a greater number of hours per day.
Source: Own elaboration.

Ushbu jadvalda mobil telefon, radio, gazeta, kompyuter, noutbuk, planshet, TVdan foydalanish chastotasi berilgan o‘rtacha qiymat, median, moda, standart og‘ishlar ko‘rsatilgan masalan, mobil telefondan yangilik olish chastotasi Mean = 4.3 yangilik iste’moliga kechagi vaqt o‘rtacha 125.8 daqiqa deb ko‘rsatilgan.

Ikkinchi nazariya - “Media repertuari” nazariyasi. Insonlar odatda faqatgina bitta media vositasi bilan cheklanmaydi, ular kun davomida turli media vositalariga va turlariga murojaat qilishadi: Telegram, youtube, Wikipedia, televizor, radio va hokazo va bu orqali individual media repertuariga ega bo`lib borishadi. Bu nazariya orqali tadqiqot olib borgan olimlar Webster, Taneja, Malthouse, Ksiazek, Geers hisoblanishadi. Tadqiqotda 495 nafar foydalanuvchi bir kun davomida kuzatilgan va mualliflar factor analysis yordamida media iste’molining 4 ta repertuarini aniqlagan. Keyingi bosqichda 476 respondent

[2] Cuesta Cambra U., Niño González J. I., De-Marchis G. (2021). Uses and gratifications of multiscreen news consumption among Spanish youth // Communication & Society. Vol. 34, No. 2. P. 19

bo‘yicha model tekshirilgan. Taneja (2012) va hammualliflarining tadqiqotida “Descriptive statistics of Repertuars, Round 2 (N = 476)” [3]nomli jadval mavjud.

Table 1. Principal components, Round 1 (*N* = 495).

Variable	Factor 1	Factor 2	Factor 3	Factor 4
Factor 1 – Computing for Work (α = 0.79)				
Email	0.7522			
Web other	0.7486			
Software office/work	0.7312			
Software other	0.6394			
Web search	0.6210			0.3425
Factor 2 – Television Viewing (α = 0.71)				
Commercial/Program promotion		0.8486		
Entertainment/Info program		0.8051		
News program		0.6495		
Channel surfing		0.5729		
Factor 3 – Media on Mobile (α = 0.60)				
Mobile text/Multimedia messaging			0.7530	
Mobile talk			0.7086	
Mobile other			0.6185	
Mobile web			0.5696	
Factor 4 – Media Online (α = 0.62)				
Online video sites				0.7913
Digital video streaming				0.7332
Web news and sports	0.3687			0.5777

Bu jadvalda media iste’molini faqat alohida platformalardan foydalanish chastotasi sifatida emas, balki shaxs tomonidan birgalikda qo‘llaniladigan media vositalari majmuasi — “media repertuari” sifatida o‘rganish mumkin. Ya’ni shaxs bir vaqtning o`zida ham televizor ko`rib ham radio tinglab, telefondan foydalanishi mumkin. Ba’zida insonlar media vositalaridan ma’lum maqsadda emas shunchaki maqsadsiz vaqtni qisqartirish va shunchaki fodalanish vositasida qo`llaydilar.

Typology of Young News Users 341

Table 1. Question wording and descriptive statistics for news exposure items

There are different ways to follow the news. How often do you watch, read, or listen to:	*M*	*SD*
Television news	2.97	1.12
Newspapers	1.57	0.94
Radio news	2.74	1.19
News websites	2.68	1.25
News apps	2.38	1.40
Facebook	2.23	1.42
Twitter	1.25	0.75
Instagram	2.97	1.47
Snapchat	1.99	1.39
WhatsApp	1.92	1.33
YouTube	2.54	1.31
Google	2.51	1.21
Wikipedia	1.75	1.01

NOTE.—Items were measured on a scale running from (1) never to (5) almost daily.

Downloaded from https://academic.oup.com/poq

Eng asosiy natija — 4 xil “news user” topilgan.

1. News minimalists

2. Yangiliklarni juda kam iste’mol qiladiganlar

3. News omnivores - deyarli barcha turdagi platformalardan faol foydalanadiganlar

4. Traditionalists

Bu yo`nalishda yana bir tadqiqot ahamiyatga molik bo`lib, tadqiqotda yoshlarning yangilik iste’moliga asoslanib 1084 nafar yosh orasida 4 xil repertuar aniqlangan. Ushbu tadqiqot Geers(2020) tomonidan amalga oshirilgan va “Yoshlar yangiliklarni qaysi platformalar kombinatsiyasi orqali iste’mol qiladi va bu guruhlar qanday farqlanadi?” savoli orqali Niderlandiyadaki 16–21 yoshdagilarni o‘rgangan[4].

[3] Taneja H., Webster J. G., Malthouse E. C., Ksiazek T. B. Media Consumption across Platforms: Identifying User-Defined Repertoires // New Media & Society. 2012. Vol. 14, No. 6. P. 951–968. DOI: 10.1177/1461444811436146.

[4] Geers S. News Consumption across Media Platforms and Content: A Typology of Young News Users // Public Opinion Quarterly. 2020. Vol. 84, No. S1. P. 332–354. DOI: 10.1093/poq/nfaa010.

Ular televizor, gazeta, radio, yangilik saytlari, news-apps, Facebook, Twitter, Instagram, YouTube kabi turli platformalardan yangilik olishlarini o‘rgangan.

Uchinchi nazariya - Selective Exposure nazariyasi. Bu yondashuvda g‘oyasi odamlar mavjud bo‘lgan barcha axborotni bir xil iste’mol qilmaydi. Ular o‘z qiziqishi, qarashlari, ehtiyoji va avvalgi e’tiqodlariga mos keladigan axborotni tanlashga moyil bo‘ladi. “Odam qaysi mediadan foydalanadi?” emas, balkI “Nega aynan shu axborotni tanlaydi va boshqasini chetlab o‘tadi?” degan savol ostida tadqiqot olib boriladi. Bu yondashuvning ildizi Paul F. Lazarsfeld, Bernard Berelson va Hazel Gaudet ishlariga borib taqaladi. Keyinchalik eng muhim rivojlantirgan olimlardan biri Leon Festingerdir. U cognitive dissonance (aqliy nomuvofiqlik) nazariyasi orqali odamlar o‘z qarashlariga zid axborotdan qochishi yoki mos axborotni izlashini tushuntirgan. Ya’ni inson o`ziga zid bo`lgan axborotdan qochib, o`z qarashlarini tasdiqlovchi axborotnoi izlashga moyil bo`lgan[5]. Zamonaviy media tadqiqotlarida va media iste’moli mavzusida Markus Prior va Natalie Jomini Stroudlarning tadqiqot ishlari ahamiyatga molikdir. Ayniqsa, Natalie Jomini Stroudning “Media Use and Political Predispositions: Revisiting the Concept of Selective Exposure” [6]maqolasida 2004-yilgi National Annenberg saylov so‘rovi (Election Survey) ma’lumotlari ishlatilgan va gazeta, siyosiy talk-radio, cable news hamda Internetdan bo‘lgan va bu naqsh turli media turlarida kuzatilgan. U tanlov pozitsiyasida insonlar qadriyati va dunyoqarashi asosida tanlov qiladi lekin, biroq har qanday e’tiqod va qarashlar media tanlashini boshqara olmaydi. Shuning uchun, media majburlashdan ko`ra tasir qilish pozitsiiyasini keng qo`llaydi. Internet platformalari algoritmlari shu nazariya asosiga qurilgan bo‘lib Selective Exposure (tanlanma axborot tanlovi) inson o‘z qiziqishi, qarashi va ehtiyojiga mos axborotni tanlaydi. Shuning uchun zamonaviy tadqiqotlarda bu hodisani ba'zan algorithmic selection / algorithmic curation, filter bubble, echo chamber kabi tushunchalar bilan bog‘lashadi. Quyidagi tadqiqot jadvali yuqoridaki fikrlar izohi sifatida N.J Stroud tomonidan amalga oshirilgan. Internetdan foydalanish bilan odamlarning siyosiy qarashlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tekshirilgan. Uning aniqlashicha siyosiy qarashlar media exposure (targ`ibot)bilan bog‘liq ekan.

[5] Festinger L.A Theory of Cognitive Dissonance. Stanford University press, 1957.

[6] Stroud N.J. Media Use and Political Predispositions: Revisiting the Concept of Selective Exposure // Political Behavior. 2008. Vol. 30, No. 3. P. 341–366. DOI: 10.1007/s11109-007-9050-9

Table 1 Logistic regression analyses of media exposure by demographics, media use, and political orientations[a]
Coefficient (SE)

	Newspaper		Talk radio		Cable news		Political internet	
	Bush endorsed	Kerry endorsed	Conservative	Liberal[b]	FOX	CNN/MSNBC	Conservative	Liberal
Cable news	−0.01 (0.01)	−0.04*** (0.01)	0.02 (0.01)	−0.05** (0.01)	0.30*** (0.01)	0.31*** (0.01)	0.00 (0.04)	−0.04 (0.04)
Newspaper	0.15*** (0.01)	0.14*** (0.01)	0.03^{+} (0.02)	−0.02 (0.02)	0.03* (0.01)	0.01 (0.01)	0.01 (0.05)	−0.12* (0.05)
NPR	−0.03* (0.01)	0.02* (0.01)	−0.03^{+} (0.02)	0.55*** (0.01)	−0.12*** (0.01)	0.06*** (0.01)	−0.03 (0.05)	0.05^{+} (0.03)
Talk radio (Non-NPR)	0.03** (0.01)	0.01 (0.01)	0.55*** (0.01)	−0.25*** (0.02)	0.13*** (0.01)	−0.12*** (0.01)	0.16*** (0.04)	0.03 (0.04)
Internet access	0.13^{+} (0.07)	0.14* (0.06)	0.37*** (0.11)	0.10 (0.11)	0.13^{+} (0.07)	0.19** (0.06)	[c]	
Political internet use	−0.01 (0.01)	−0.01 (0.01)	−0.03^{+} (0.02)	0.01 (0.02)	−0.04** (0.01)	−0.02 (0.01)	0.35*** (0.04)	0.30*** (0.03)
Ideology/partisanship	**−0.08*** (0.01)**	**0.11*** (0.01)**	**−0.40*** (0.02)**	**0.20*** (0.02)**	**−0.35*** (0.01)**	**0.26*** (0.01)**	**−0.48*** (0.08)**	**0.57*** (0.09)**
Nagelkerke R-square	0.09	0.18	0.52	0.47	0.37	0.30	0.31	0.34
N	13,142		13,115		13,154		13,142	

Note: Analyses included all controls described in the appendix. Only the relevant media use variable controls are shown here

$^{+}$ $p < 0.10$, * $p < 0.05$, ** $p < 0.01$, *** $p < 0.001$

[a] Full tables are available upon request from the author

[b] Given some controversy as to whether NPR is appropriately labeled liberal talk radio (see, for example, Cappella et al. 1996, where Diane Rehm of NPR is coded as liberal and *Talk of the Nation* is coded as moderate), the liberal talk radio model was repeated without NPR included as a liberal outlet. Ideology/partisanship remains significant and positive in predicting the consumption of liberal talk radio

[c] Including Internet access in the Internet use models results in quasi-complete separation because no-one without Internet access looks at liberal or conservative websites. Since this is an important control variable, it was left in the equation, even though its coefficient is not estimated. Allison (1999) notes that "This model controls for the variable that produced the problem, and there is no reason to be suspicious of the results for *other* variables" (pp. 46–47)

Respondentlarning siyosiy qarashlari bilan ular o‘qiydigan gazetalarning siyosiy nomzodlarni qo‘llab-quvvatlash amaliyoti o‘rtasidagi bog‘liqlik natijalarining qanchalik barqaror ekanini tekshirish uchun ierarxik chiziqli modellar (hierarchical linear models) qo‘llanildi. Bunda respondentlar Kongress saylov okruglari bo‘yicha guruhlashtirildi va har bir okrugda 2004-yilgi prezidentlik saylovida Bushga berilgan ovozlar ulushi nazorat qilindi. 1-jadvalda ko‘rsatilgan barcha nazorat o‘zgaruvchilari ushbu tahlilga ham kiritildi.

***To`rtinchi nazariya*** – Media effect bo`lib, bu nazariya asosida har bir shaxs uchun individual ta’sir qilishi mumkin bo`lgan media mahsulotlar o`rganiladi. Aslida bu nazariya asosi 1920-30-yillardagi “powerful effects” degan tushunchali yondashuvlardan boshlangan. Keyinchalik esa tasir aslida ancha murakkabligini isbotlovchi emperik tadqiqotlar paydo bo`la boshlagan. Keyinchalik esa Maxwell McCombs va Donald Shaw 1972-yilda mashhur: “The Agenda-Setting Function of Mass Media”[7] maqolasini e’lon qilgan. Maqola Public Opinion Quarterly, 36(2), 176–187-betlarda chop etilgan. Bu tadqiqot 1068-yilda AQSh prezidentlik saylovi vaqtida Chapel Hill, North Carolina aholisi bilan so`rov o`tqazilgan. Bu tadqiqotda ikki narsa solishtirilgan: 1. Odamlar qaysi muammoni eng muhim deb hisoblagan; 2. OAV qaysi muammoga eng ko`p e’tibor qaratgan.

Bundan tashqari Walter Lippmann - media va jamoatchilikning voqelik haqidagi tasavvurlarini shakllantirish; Harold Lasswell - kommunikatsiyaning jamiyatdagi funksiyalari; Paul Lazarsfeld & Elihu Katz - Two-Step Flow: media ta’siri ko‘pincha opinion leaderlar orqali tarqalishi; George Gerbner - Cultivation

[7] MAXWELL E. McCOMBS , DONALD L. SHAW *Public Opinion Quarterly*, Volume 36, Issue 2, SUMMER 1972, https://doi.org/10.1086/267990 Published: 01 January 1972, P.176-187

Theory: uzoq muddatli media iste'moli odamning ijtimoiy voqelik haqidagi tasavvurini shakllantirishi haqida maqolalar[8] e'lon qilishgan.

Media effect bitta yo`nalishdan iborat emas, u o`z ichida bir nechta yo`nalishlarga bo`linadi: Cultivation theory, Agenda-Setting, Framing, Priming, Two-Step Flow kabi yo`nalishlari mavjud va media iste'molini tadqiq qilish uchun Cultivation Theoryni yo`nalishi mos keladi, chunki bu nazariyada qancha media iste'mol qilinadi va bu orqali qanday ta'sir shakllanishi ko`rsatib beriladi. Bu yo`nalish asoschisi George Gerbner yondashuvni Larry Gross bilan birga rivojlantirgan[9]. 1977-yilgi Gerbner va hamkasblari ishida metodologik hisobotning o‘zida 71 ta jadval bo‘lgan. Yana 1980-yilgi tadqiqotda 1 674 ta dastur va 4 785 ta asosiy dramatik personaj tahlil qilingan.




Figure 2: Violence Index for different hours of dramatic programming

To‘qqiz yil davomida olib borilgan tekshiruvlar, tinglovlar va komissiyalar faoliyatiga qaramay (yoki biz televizordagi zo‘ravonlikni kuzatishni boshlaganimizdan beri), har o‘nta dasturdan sakkiztasida hanuzgacha qandaydir zo‘ravonlik mavjud. Dam olish kunlaridagi bolalar uchun mo‘ljallangan dasturlarda esa bu ko‘rsatkich har o‘nta dasturdan to‘qqiztasini tashkil etadi. Zo‘ravonlik epizodlarining umumiy darajasi bir soatlik dasturga o‘rtacha 8 ta holatni tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkich, agar biror jihatdan farq qilsa ham, 1969-yildan beri kuzatilgan har qanday davrdagidan yuqoriroq bo‘lishi mumkin. Dam olish kunlari bolalar dasturlaridagi zo‘ravonlikning yuqori darajasi 1969-yildagi eng yuqori ko‘rsatkichdan pasaygan

[8]Lippmann W. Public Opinion. New York: Harcourt, Brace and Company, 1922. P. 3-29.//Lasswell H.D. The Structure and Function of Communication in Society // Bryson L. (ed.). The Communication of Ideas. New York: Harper & Brothers, 1948. P. 37–51.// Lazarsfeld P.F., Berelson B., Gaudet H. The People's Choice: How the Voter Makes Up His Mind in a Presidential Campaign. New York: Duell, Sloan and Pearce, 1944. 178 p.//Katz E., Lazarsfeld P.F. Personal Influence: The Part Played by People in the Flow of Mass Communications. Glencoe, IL: Free Press, 1955. P. 15–43.

[9] Gerbner, G., & Gross, L. (1976). “Living with Television: The Violence Profile.” Journal of Communication, 26(2), 172–199.

bo‘lsa-da, 1974-yildagi eng past darajasidan yana oshib, bir soatga 16 ta zo‘ravonlik holatiga yetgan[10].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, media iste’molini o‘rganishda nazariy yondashuvlar auditoriyaning axborot bilan munosabati, media platformalaridan foydalanish sabablari, axborotni tanlash xususiyatlari hamda media mahsulotlarining inson dunyoqarashiga ta’sirini chuqur anglash imkonini beradi. Ehtiyojlar va qoniqishlar nazariyasi insonlarning media vositalaridan qanday maqsadlarda foydalanishini ochib bersa, Media Repertuari nazariyasi bir shaxsning turli media platformalaridan birgalikda foydalanish xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Selective Exposure nazariyasi auditoriyaning o‘z qiziqishi, e’tiqodi va dunyoqarashiga mos axborotni tanlash jarayonini tushuntiradi. Media Effects, xususan, Cultivation Theory esa uzoq muddatli media iste’molining insonlarning ijtimoiy voqelik haqidagi tasavvurlari va qarashlariga ta’sirini o‘rganadi.

Tahlil qilingan xorijiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy media iste’moli faqatgina axborot olish yoki ko‘ngil ochish bilan cheklanmaydi. U shaxsning axborot tanlovi, kundalik odatlari, ijtimoiy qarashlari va voqelikni idrok etish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, Telegram, YouTube, Instagram, TikTok va yangiliklar saytlarining keng tarqalishi media iste’molini ko‘p platformali va murakkab jarayonga aylantirmoqda.

Shu sababli media iste’molini ilmiy jihatdan tadqiq etishda mazkur nazariyalarni alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv auditoriyaning media vositalaridan foydalanish motivlarini, platformalarni tanlash mexanizmlarini va axborotning uzoq muddatli ta’sirini kompleks o‘rganish imkonini beradi. Natijada zamonaviy jamiyatda media iste’molining shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq anglash uchun mustahkam ilmiy asos yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. Uses and Gratifications Katz, E., Gurevitch, M., & Haas, H. (1973). On the Use of the Mass Media for Important Things. American Sociological Review, 38(2), 164–181. DOI: 10.2307/2094393. JSTOR
2. Katz, E., Blumler, J. G., & Gurevitch, M. (1974). Utilization of Mass Communication by the Individual. In J. G. Blumler & E. Katz (Eds.), The Uses of Mass Communications: Current Perspectives on Gratifications Research (pp. 19–32). Beverly Hills, CA: Sage.
3. Media Repertuar Taneja, H., Webster, J. G., Malthouse, E. C., & Ksiazek, T. B. (2012). Media consumption across platforms: Identifying user-defined

[10] Gerbner G., Gross L. Living With Television: The Violence Profile // Journal of Communication. 1976. Vol. 26, No. 2. P. 172–199. DOI: 10.1111/j.1460-2466.1976.tb01397.x. P.187

Repertuars. New Media & Society, 14(6), 951–968. DOI: 10.1177/1461444811436146. Sage Journals
4. Geers, S. (2020). News consumption across media platforms and content: A typology of young news users. Public Opinion Quarterly, 84(S1), 332–354. DOI: 10.1093/poq/nfaa010.
5. Cuesta-Cambra, U., Niño-González, J. I., & De-Marchis, G. (2021). Uses and gratifications of multiscreen news consumption among Spanish youth. Communication & Society, 34(2), 15–29. DOI: 10.15581/003.34.2.15-29.
6. Selective Exposure Festinger, L. (1957). A Theory of Cognitive Dissonance. Stanford, CA: Stanford University Press.
7. Freedman, J. L., & Sears, D. O. (1965). Selective exposure. In L. Berkowitz (Ed.), Advances in Experimental Social Psychology (Vol. 2, pp. 57–97). New York: Academic Press. DOI: 10.1016/S0065-2601(08)60103-3. Sears, D. O., & Freedman, J. L. (1967). Selective exposure to information: A critical review. Public Opinion Quarterly, 31(2), 194–213. DOI: 10.1086/267513.
8. Stroud, N. J. (2008). Media use and political predispositions: Revisiting the concept of selective exposure. Political Behavior, 30(3), 341–366. DOI: 10.1007/s11109-007-9050-9.
9. Media Effects / Cultivation Gerbner, G., & Gross, L. (1976). Living with television: The violence profile. Journal of Communication, 26(2), 172–199. DOI: 10.1111/j.1460-2466.1976.tb01397.x. PubMed **Eslatma:** ayrim elektron bazalarda maqola 173–199, Wiley metadata'sida esa 172–194 ko‘rsatilgan. Original jurnal PDF/issue pagination asosida 172–199 ko‘rinishi ham mavjud. Wiley Online Library
10. Valkenburg, P. M., Peter, J., & Walther, J. B. (2016). Media effects: Theory and research. Annual Review of Psychology, 67, 315–338. DOI: 10.1146/annurev-psych-122414-033608.
11. McCombs, M. E., & Shaw, D. L. (1972). The agenda-setting function of mass media. Public Opinion Quarterly, 36(2), 176–187. DOI: 10.1086/267990.
12. Media effectsning klassik/fundamental manbalari Lippmann, W. (1922). Public Opinion. New York: Harcourt, Brace and Company.
13. Lasswell, H. D. (1948). The structure and function of communication in society. In L. Bryson (Ed.), The Communication of Ideas (pp. 37–51). New York: Harper & Brothers. Lazarsfeld, P. F., Berelson, B., & Gaudet, H. (1944). The People’s Choice: How the Voter Makes Up His Mind in a Presidential Campaign. New York: Duell, Sloan and Pearce.
14. Katz, E., & Lazarsfeld, P. F. (1955). Personal Influence: The Part Played by People in the Flow of Mass Communications. Glencoe, IL: Free Press.
15. Media consumptionni o‘lchash metodologiyasi uchun Konitzer, T., et al. (2021). Comparing estimates of news consumption from survey and passively collected behavioral data. Public Opinion Quarterly, 85(S1), 347–370. DOI: 10.1093/poq/nfab023.

16. Scharkow, M., et al. (2019/2020). Media use and its effects in a cross-national perspective. Kölner Zeitschrift für Soziologie und Sozialpsychologie / KZfSS.

ЖУРНАЛИСТИКА ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

IJTIMOIY TARMOQLARDA ALGORITMIK TAVSIYALAR TIZIMINING SHAKLLANISHI VA KONTENT ISTE'MOLIGA TA'SIRI

Jartibaeva Gulsara Kuwanishbaevna
jartibaevagulsara@gmail.com
Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda algoritmik tavsiyalar tizimining shakllanishi, ishlash mexanizmlari hamda foydalanuvchilarning kontent iste'moliga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli media muhitida axborot oqimining ortib borishi sharoitida algoritmik saralashning foydalanuvchi ehtiyojlariga mos kontentni tanlashdagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, tavsiya algoritmlarining foydalanuvchi faolligi, axborot tanlovi, selektiv ekspozitsiya va axborot pufakchalari shakllanishiga ta'siri xorijiy tadqiqotlar asosida yoritiladi. Maqolada algoritmik tavsiyalarning nafaqat texnologik, balki ijtimoiy-kommunikativ jarayon sifatidagi xususiyatlari ham tahlil etilib, axborot xilma-xilligini ta'minlashga qaratilgan muqobil yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, algoritmik tavsiyalar, kontent iste'moli, algoritmik saralash, shaxsiylashtirish, raqamli media, selektiv ekspozitsiya, axborot pufakchasi, foydalanuvchi faolligi.

Ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy axborot makonidagi o'rni tobora kengayib borayotgan bir sharoitda foydalanuvchilarga taqdim etilayotgan kontentni tanlash va tartibga solish mexanizmlari ham tubdan o'zgarmoqda. Dastlab ijtimoiy platformalarda axborotlar asosan joylashtirilgan vaqtiga qarab namoyish etilgan bo'lsa, bugungi kunda foydalanuvchining qiziqishlari, avvalgi faoliyati, ko'rgan materiallari va boshqa o'zaro ta'sir ko'rsatkichlariga asoslangan algoritmik tavsiya tizimlari keng qo'llanilmoqda. Natijada ijtimoiy tarmoqlardagi axborot oqimi shunchaki ma'lumotlar ketma-ketligi emas, balki har bir foydalanuvchi uchun alohida shakllantiriladigan raqamli kontent muhitiga aylandi.

Algoritmik tavsiyalar tizimining rivojlanishi, avvalo, internetda mavjud axborot hajmining keskin ortishi bilan bog'liq. Foydalanuvchining barcha mavjud materiallarni mustaqil ravishda ko'rib chiqishi va ular orasidan keraklisini tanlashi amaliy jihatdan qiyinlashdi. Shu sababli ijtimoiy media platformalarida foydalanuvchi uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan materiallarni avtomatik aniqlash, saralash va muayyan tartibda taqdim etish zarurati yuzaga keldi. Tavsiya tizimlari aynan shu vazifani bajaruvchi texnologik mexanizm sifatida rivojlandi. Jana Lasser va Nikolaus Poechhackerning ta'kidlashicha, zamonaviy tavsiya tizimlari dastlab kontentni saralash, nomzod materiallarni shakllantirish va ularni foydalanuvchiga taqdim etish bosqichlarini qamrab oladi [1].

Algoritmik tavsiyalar tizimining muhim xususiyati foydalanuvchi xatti-

harakatlaridan olingan ma’lumotlar asosida ishlashidir. Bunda foydalanuvchining qaysi postlarni ko‘rgani, ularga munosabat bildirgani, izoh qoldirgani, ulashgani yoki muayyan materialni ko‘rishga qancha vaqt sarflagani kabi ko‘rsatkichlar hisobga olinishi mumkin. Ushbu ma’lumotlar asosida tizim foydalanuvchining ehtimoliy qiziqishlarini aniqlaydi va unga mos materiallarni tavsiya qiladi. Demak, algoritmik tavsiya jarayonida foydalanuvchining avvalgi faoliyati keyingi axborot oqimining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Erik Knudsen o‘z tadqiqotida yangiliklarni tavsiya qilish tizimlarining ikkita asosiy yondashuvini ajratib ko‘rsatadi. Birinchisi, hamkorlikda filtrlash (collaborative filtering) bo‘lib, bunda o‘xshash qiziqishlarga ega foydalanuvchilarning tanlovlari asosida yangi materiallar tavsiya etiladi. Ikkinchisi, kontentga asoslangan filtrlash (content-based filtering) bo‘lib, bunda foydalanuvchining avval iste’mol qilgan materiallari va ularning mazmuniy xususiyatlari hisobga olinadi. Ko‘plab tavsiya tizimlarida ushbu ikki yondashuvning birgalikdagi qo‘llanilishi kuzatiladi [2]. Mazkur mexanizmlar foydalanuvchiga o‘z qiziqishlariga mos kontentni tezroq topish imkonini bersa-da, uning axborot tanloviga ham muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi algoritmik tavsiyalarning asosiy maqsadlaridan biri foydalanuvchi faolligini oshirish va uning platformada qolish vaqtini uzaytirish bilan bog‘liq. Lasser va Poechhacker tadqiqotida platformalarning iqtisodiy modeli foydalanuvchi e’tiborini jalb qilish va reklama namoyishlari orqali daromad olishga asoslanishi ta’kidlanadi. Shu sababli tavsiya algoritmlari foydalanuvchining avvalgi munosabatlarini tahlil qilib, yangi materialga nisbatan qanday faollik ko‘rsatishi mumkinligini bashorat qiladi. Natijada foydalanuvchi bilan ko‘proq o‘zaro ta’sir yuzaga keltirishi kutilayotgan kontent yuqoriroq o‘ringa joylashtiriladi [1].

Bu jarayon kontent iste’molining xarakterini ham o‘zgartiradi. Foydalanuvchi ijtimoiy tarmoqqa kirganida barcha mavjud axborotlar bilan bir xil darajada tanishmaydi. Unga taqdim etiladigan materiallar algoritmik saralash natijasida muayyan tartibda shakllantiriladi. Bunday sharoitda foydalanuvchining axborot tanlovi faqat shaxsiy xohishiga emas, balki platforma tomonidan yaratilgan tavsiya muhitiga ham bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha aytganda, algoritm nafaqat foydalanuvchi nimani ko‘rishini, balki qaysi axborotga ko‘proq e’tibor qaratishini ham belgilashda ishtirok etadi.

Mazkur holatni tushuntirishda selektiv ekspozitsiya tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Selektiv ekspozitsiya foydalanuvchining o‘z qarashlari, qiziqishlari va mavjud e’tiqodlariga mos keladigan axborotni tanlashga moyilligini anglatadi. Algoritmik tavsiya tizimlari foydalanuvchining avvalgi tanlovlarini o‘rganib, unga o‘xshash mazmundagi materiallarni qayta tavsiya qilishi mumkin. Natijada foydalanuvchi o‘ziga tanish va ma’qul bo‘lgan axborotlarni muntazam iste’mol qilishga moyil bo‘ladi. Bu esa vaqt o‘tishi bilan axborot doirasining torayishi va turli nuqtayi nazarlar bilan tanishish imkoniyatining kamayishiga olib kelishi ehtimolini yuzaga keltiradi.

Erik Knudsen ushbu jarayonni o‘rganish maqsadida Recommender Influenced Selective Exposure (RISE) deb nomlangan nazariy modelni taklif etadi. Mazkur

model tavsiya algoritmlarining foydalanuvchilarda selektiv ekspozitsiyani kuchaytirishi yoki kamaytirishi tizimning qanday maqsad asosida ishlab chiqilganiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Muallif ikkita oldindan ro‘yxatdan o‘tkazilgan onlayn tajriba orqali tavsiya tizimlari foydalanuvchilarning axborot tanloviga qanday ta’sir ko‘rsatishini tekshirgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, foydalanuvchining mavjud qarashlariga mos materiallar alohida ajratib ko‘rsatilganda, uning aynan shu mazmundagi axborotni tanlash ehtimoli ortgan. Aksincha, qarama-qarshi nuqtayi nazarni ifodalovchi materiallar tavsiya qilinganda, selektiv ekspozitsiya darajasi kamayishi mumkinligi aniqlangan [2].

Tadqiqotning muhim jihati shundaki, algoritmik tavsiyalarni faqat salbiy yoki ijobiy hodisa sifatida baholash mumkin emas. Ularning foydalanuvchi xulq-atvoriga ta’siri, avvalo, qanday maqsadlar asosida ishlab chiqilgani va qanday mexanizmlar orqali ishlashiga bog‘liq. Agar tavsiya tizimi faqat foydalanuvchining avvalgi qiziqishlarini takrorlashga yo‘naltirilsa, axborot xilma-xilligi cheklanishi mumkin. Agar tizim turli qarashlar, mavzular va ishonchli manbalarga ega materiallarni ham tavsiya qilsa, foydalanuvchining axborot doirasi kengayishi ehtimoli ortadi.

Algoritmik tavsiyalarning yana bir muhim oqibati axborot pufakchasi (filter bubble) hodisasi bilan bog‘liq. Ushbu tushuncha foydalanuvchining asosan o‘z qiziqishlari va qarashlariga mos axborotlar bilan chegaralangan muhitda qolishini ifodalaydi. Bunday vaziyatda foydalanuvchi boshqa nuqtayi nazarlar, muqobil fikrlar va turli mavzulardagi materiallardan yetarli darajada xabardor bo‘lmasligi mumkin. Biroq axborot pufakchasining shakllanishini faqat algoritmlarning faoliyati bilan izohlash to‘g‘ri emas. Knudsenning tadqiqotida foydalanuvchining shaxsiy tanlovi, mavjud qarashlari va tavsiya tizimining dizayni o‘zaro bog‘liq omillar sifatida ko‘rib chiqiladi [2].

Lasser va Poechhacker ham algoritmik saralashning ijtimoiy oqibatlariga e’tibor qaratib, kontentni faqat foydalanuvchi faolligini oshirish mezoni asosida tanlash ayrim muammolarni yuzaga keltirishi mumkinligini ta’kidlaydi. Jumladan, hissiy ta’siri kuchli, keskin yoki ziddiyatli materiallarning ustuvorlikka ega bo‘lishi, axborotning ishonchliligi va mazmuniy sifatiga yetarli e’tibor berilmasligi mumkin. Mualliflar tavsiya tizimlarini ishlab chiqishda axborotning ishonchliligi, sifati, dolzarbligi va turli nuqtayi nazarlarni qamrab olish imkoniyatlarini ham hisobga olish zarurligini ilgari suradi [1].

Shu nuqtayi nazardan, algoritmik tavsiyalar tizimining samaradorligini faqat ko‘rishlar soni, yoqtirishlar yoki foydalanuvchining platformada qancha vaqt qolishi bilan o‘lchash yetarli emas. Axborotning mazmuni, manbaning ishonchliligi va foydalanuvchiga taqdim etilayotgan materiallarning xilma-xilligi ham muhim mezon hisoblanadi. Ayniqsa, jurnalistika nuqtayi nazaridan bu masala alohida ahamiyatga ega. Chunki ijtimoiy tarmoqlar ko‘plab foydalanuvchilar uchun yangiliklar va ijtimoiy-siyosiy axborotlarni olishning muhim manbaiga aylanmoqda. Agar yangiliklarning tarqalishi faqat foydalanuvchi faolligiga bog‘liq bo‘lsa, jamoatchilik uchun muhim bo‘lgan, biroq kamroq munosabat uyg‘otadigan axborotlar keng auditoriyaga yetib bormasligi mumkin.

Muammoning yechimi sifatida muqobil algoritmik tavsiya tizimlarini ishlab chiqish

masalasi ham ilmiy tadqiqotlarda ilgari surilmoqda. Lasser va Poechhacker foydalanuvchi faolligini oshirishdan tashqari, jamiyat manfaatlari va sog‘lom jamoatchilik muhokamasini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan algoritmlarni yaratish zarurligini asoslaydi. Ular turli auditoriyalarni birlashtiruvchi tavsiya mexanizmlari, axborot xilma-xilligi va ishonchli kontentni ustuvorlashtirish kabi yondashuvlarga e’tibor qaratadi [1]. Bunday yondashuvlar foydalanuvchiga faqat o‘zi yoqtirgan materiallarni emas, balki mavzu bo‘yicha boshqa qarashlar va muqobil axborot manbalarini ham taqdim etish imkonini beradi.

Knudsenning RISE modeli ham algoritmik tavsiyalarning maqsadga muvofiq loyihalashtirilishi muhimligini ko‘rsatadi. Muallifning tajribalari tavsiya tizimlarida materialning dolzarbligini ko‘rsatish va uni alohida ajratib taqdim etish foydalanuvchining tanloviga ta’sir qilishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tadqiqotda tajriba uchun haqiqiy ijtimoiy tarmoq algoritmlari emas, balki turli tavsiya mexanizmlarini modellashtiruvchi muhitdan foydalanilgan. Shuning uchun olingan natijalarni barcha platformalar va barcha turdagi kontentlarga bir xil tarzda tatbiq etish mumkin emas [2].

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlardagi algoritmik tavsiyalar tizimi zamonaviy axborot iste’molining muhim tarkibiy qismiga aylangan. U foydalanuvchiga kerakli ma’lumotlarni tezkor topish, ortiqcha axborot oqimini tartibga solish va shaxsiy qiziqishlariga mos materiallardan foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, algoritmik saralash foydalanuvchining axborot tanloviga ta’sir ko‘rsatishi, bir xil mazmundagi materiallarning takroran namoyish etilishi va turli qarashlar bilan tanishish imkoniyatining cheklanishi kabi muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin. O‘rganilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur jarayonlarning natijasi algoritmning mavjudligidan ko‘ra, uning qanday maqsad va mezonlar asosida ishlashiga ko‘proq bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, algoritmik tavsiyalar tizimini faqat texnologik qulaylik sifatida emas, balki zamonaviy media muhitida axborot tarqalishi, tanlanishi va iste’mol qilinishiga ta’sir ko‘rsatuvchi kommunikativ mexanizm sifatida o‘rganish zarur. Kelgusida ijtimoiy tarmoqlardagi tavsiya tizimlarini takomillashtirishda foydalanuvchi manfaatlari bilan bir qatorda axborot xilma-xilligi, ishonchlilik va kontentning ijtimoiy ahamiyatini ham hisobga olish muhimdir. Bu esa raqamli media makonida yanada muvozanatli axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lasser J., Poechhacker N. Designing social media content recommendation algorithms for societal good // *Annals of the New York Academy of Sciences*. – 2025. – Vol. 1548. – P. 20–28. – DOI: https://doi.org/10.1111/nyas.15359.

2. Knudsen E. Modeling news recommender systems’ conditional effects on selective exposure: Evidence from two online experiments // *Journal of Communication*. – 2023. – Vol. 73, No. 2. – P. 138–149. – DOI: https://doi.org/10.1093/joc/jqac047.

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

ЎЗБЕК, ИНГЛИЗ ВА РУС ТИЛЛАРИДАГИ ДИПЛОМАТИК ҲУЖЖАТЛАР ТАРЖИМАСИДА ГРАММАТИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАР

Мирмахмудова Ирода Ирисматовна

Аннотация. Мақолада ўзбек, инглиз ва рус тилларидаги дипломатик-ҳуқуқий ҳужжатларни таржима қилишда кузатиладиган грамматик трансформациялар таржимашуносликнинг асосий назарий ёндашувлари асосида ёритилади. Л.С. Бархударов, Ж.К. Кэтфорд, В.Н. Комиссаров ва К. Клаудининг қарашлари қиёсий кўриб чиқилиб, расмий манбаларда эълон қилинган халқаро шартнома ва норматив ҳужжатлардан олинган мисоллар таҳлил қилинади. Таҳлилда грамматик алмаштириш, гап бўлаклари тартибини ўзгартириш, гапни бўлиш ва бирлаштириш, грамматик қўшимча киритиш ҳамда тушириб қолдириш каби амаллар ажратилади. Дипломатик матнда бундай ўзгаришлар шаклий фарқни бартараф этиш билан бирга, ҳуқуқий мажбурият, рухсат, шарт ва истисно маъноларини сақлашга хизмат қилиши кўрсатилади.

Калит сўзлар: дипломатик ҳужжат, халқаро шартнома, таржима, грамматик трансформация, грамматик алмаштириш, эквивалентлик

Кириш

Дипломатик ҳужжатлар давлатлар ва халқаро ташкилотлар ўртасидаги расмий муносабатларни ҳуқуқий жиҳатдан расмийлаштирувчи матнлардир. Уларда томонларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, келишилган ҳаракатлар, амал қилиш муддатлари, кучга кириш шартлари ҳамда низоларни ҳал этиш тартиби аниқ ифодаланади. Шу сабабли бундай ҳужжатларнинг таржимасида мазмунни умумий тарзда етказишнинг ўзи етарли эмас: грамматик шакллар орқали ифодаланган субъект, ҳаракат, мажбурият даражаси, замон, шарт ва инкор муносабатлари ҳам сақланиши лозим.

Инглиз, рус ва ўзбек тиллари грамматик қурилишидаги фарқлар дипломатик матнларни бир тилдан иккинчи тилга ўтказишда муайян қайта қуришларни талаб қилади. Инглиз тилида артикль, мажҳул нисбат ва феълнинг аналитик шакллари кенг қўлланса, рус тилида келишик ва турланиш тизими, ўзбек тилида эса агглютинатив қўшимчалар ҳамда кесимнинг гап охирида жойлашиши муҳим ўрин тутади. Бироқ ушбу фарқлар ҳар бир ҳолатда автоматик равишда муайян трансформацияни талаб қилади, деган хулоса чиқариб бўлмайди. Трансформация матннинг аниқ контексти ва ҳуқуқий вазифасига қараб белгиланади.

Мақоланинг мақсади дипломатик ҳужжатлар таржимасида уч тилнинг грамматик имкониятлари билан боғлиқ трансформацияларни назарий жиҳатдан тизимлаштириш ва расмий манбалардаги мисоллар асосида

уларнинг вазифасини кўрсатишдан иборат. Тадқиқотда тавсифий, қиёсий-чоғиштирма ва контекстуал таҳлил усулларидан фойдаланилди. Мисоллар сифатида БМТ Уставининг инглизча ва русча расмий матнлари, Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларга оид норматив ҳужжатлари ҳамда халқаро шартнома лойиҳаларини тайёрлаш бўйича услубий кўрсатмалар олинди.

Грамматик трансформацияларнинг назарий асослари

Таржимада грамматик трансформация тушунчаси манба ва таржима тилларининг грамматик тизимлари ўртасидаги тафовутни бартараф этиш учун қўлланадиган шаклий-синтактик ўзгаришларни англатади. Л.С. Бархударов таржимадаги ўзгартиришларни амалий операциялар нуқтаи назаридан таснифлаб, ўрин алмаштириш, алмаштириш, қўшиш ва тушириб қолдириш турларини ажратади [1]. Бу тасниф таржимон амалга оширадиган ўзгаришларнинг ташқи кўринишини аниқлаш имконини беради.

В.Н. Комиссаров таржима трансформацияларини лексик, грамматик ва лексик-грамматик гуруҳларга ажратади. Унинг грамматик трансформациялар доирасига синтактик ўхшатиш, гапни бўлиш, гапларни бирлаштириш ва грамматик алмаштириш каби усуллар киритилади [2]. Ж.К. Кэтфорд эса таржимадаги грамматик фарқларни “категория силжишлари” доирасида таҳлил қилиб, структура, сўз туркуми, бирлик даражаси ва тизим ичидаги ўзгаришларни фарқлайди [3]. Демак, трансформацияларни фақат таржимоннинг амалий усули сифатида эмас, балки тил тизимлари ўртасидаги формал мувофиқлик бузилиши сифатида ҳам ўрганиш мумкин.

К. Клауди таржима жараёнида сўз тартибини қайта қуриш, айрим элементларни тушириш ёки қўшиш каби операциялар оддий гап таржимасида ҳам юзага келишини таъкидлайди. Олим грамматик трансформациялар атамасининг Бархударов, Комиссаров, Рецкер ва Швейцер ишларида қўлланишини қайд этиб, грамматик операцияларни тилларнинг фарқли тизимлари туфайли пайдо бўладиган мунтазам ечимлар сифатида кўради [4]. Бу ёндашув дипломатик ҳужжатларда ҳам муҳим: трансформациянинг мақсади манба тил шаклини механик сақлаш эмас, балки таржима тили меъёрлари доирасида ҳуқуқий мазмунни аниқ ифодалашдир.

Мазкур мақолада грамматик трансформациялар Бархударов таклиф этган тўрт амалий гуруҳ ва Комиссаров ажратган синтактик қайта қуриш турларини ҳисобга олган ҳолда таҳлил қилинади. Бу ерда лексик алмаштиришлар мустақил объект сифатида эмас, грамматик ўзгариш билан бирга келган ҳоллардагина тилга олинади.

Дипломатик ҳужжатларда грамматик трансформацияларнинг қўлланиши

Грамматик алмаштириш ва синтактик қайта қуриш. Дипломатик матнларда грамматик алмаштириш феъл шаклини, сўз туркумини, гап бўлагини ёки синтактик қурилмани таржима тилининг меъёрларига мувофиқ ўзгартиришда намоён бўлади. Масалан, инглиз тилидаги мажҳул нисбатли конструкциялар рус ва ўзбек тилларида мажҳул нисбатда сақланиши ҳам,

контекст талабига кўра шахссиз ёки фаол конструкция орқали берилиши ҳам мумкин. Бироқ бундай алмаштиришда ҳаракатни бажарувчи субъектнинг аниқлиги ва ҳуқуқий жавобгарлик кимга юклатилгани ўзгармаслиги шарт.

БМТ Уставининг 2-моддаси 4-банди инглизча матнида "*All Members shall refrain … from the threat or use of force …*" шаклида берилган. Русча расмий матнда шу норма "*Все Члены Организации воздерживаются … от угрозы силой или ее применения …*" тарзида ифодаланади [5; 6]. Инглиз тилидаги shall + феъл модели рус тилида келаси замон шаклида эмас, балки норматив-ҳозирги замон маъносидаги *воздерживаются* феъли билан берилган. Бу ерда шаклнинг грамматик алмашиши мажбурият мазмунини бекор қилмайди: ҳар икки матнда ҳам аъзо давлатларга куч билан таҳдид қилиш ёки куч ишлатишдан тийилиш мажбурияти юкланади. Мисол дипломатик-ҳуқуқий матнда феъл шаклининг формал эмас, функционал мувофиқлиги устувор эканини кўрсатади.

Ўрин алмаштириш. Ўрин алмаштириш манба тилдаги гап бўлаклари ёки синтактик бирликларнинг таржима тилида бошқа тартибда жойлашишидир. Инглиз тилида одатий дарак гапда эга-кесим-тўлдирувчи тартиби устувор бўлса, ўзбек тилида кесим кўпинча гап охирида келади. Рус тилида сўз тартиби нисбатан эркин бўлса-да, расмий-ҳуқуқий матнда ахборотнинг мантиқий урғуси ва синтактик равшанлигига риоя қилинади. Шунинг учун инглизча "*The Parties shall resolve the dispute by negotiations*" мазмуни ўзбек тилида "*Томонлар низони музокаралар йўли билан ҳал этадилар*" тартибида берилиши табиийдир. Бу мисол тилларнинг умумий синтактик меъёрларини кўрсатувчи модель бўлиб, муайян ҳужжатдан олинган параллел иқтибос сифатида тақдим этилмайди.

Дипломатик ҳужжат таржимасида ўрин алмаштириш ҳуқуқий муносабатларнинг мантиқий занжирини бузмаслиги керак. Айниқса, "*unless*", "provided *that*", "*in accordance with*" каби шарт ва асос муносабатини билдирувчи бирликлар иштирок этган гапларда уларнинг қайси қисмга боғланаётгани аниқ сақланиши лозим. Ўрин алмаштириш натижасида шартнинг амал қилиш доираси ўзгарса, таржима грамматик жиҳатдан равон бўлса ҳам, мазмунан нотўғри бўлиши мумкин.

Гапни бўлиш ва бирлаштириш. Комиссаров таснифида гапни бўлиш ва бирлаштириш грамматик трансформациялар қаторига киритилади [2]. Инглиз ва рус дипломатик-ҳуқуқий матнларида бир гап таркибида бир нечта шарт, истисно ва ҳуқуқий оқибатлар жамланиши мумкин. Ўзбек тилига таржима жараёнида бундай гапни икки ёки ундан ортиқ мустақил гапга ажратиш ўқишни енгиллаштириши мумкин. Бироқ шарт, истисно ёки ҳуқуқий натижа ўртасидаги боғланиш йўқолмаслиги керак.

Аксинча, манба матндаги кетма-кет қисқа гаплар таржима тилида ягона мураккаб гапга бирлаштирилиши мумкин. Бу усул фақат гаплар ўртасидаги мазмуний ва мантиқий алоқа аниқ бўлгандагина мақбул ҳисобланади. Дипломатик матнда гапни бўлиш ёки бирлаштириш ҳуқуқ ва мажбуриятлар

сонини, уларнинг амал қилиш шартларини ёки субъектларини ўзгартирмаслиги лозим.

Қўшиш ва тушириб қолдириш. Қўшиш манба тилда грамматик жиҳатдан ифодаланмаган, аммо таржима тилида гапнинг тўғри ва аниқ қурилиши учун зарур бўлган элементни киритишдир. Тушириб қолдириш эса таржима тилида алоҳида ифодалаш талаб этилмайдиган ёки бошқа грамматик восита орқали англашиладиган элементни чиқаришдир. Бархударов таснифида бу икки амал алоҳида трансформация турлари сифатида кўрсатилади [1]. Клауди ҳам таржимада айрим элементларнинг туширилиши ва қўшилишини тиллараро операциялар қаторида таҳлил қилади [4].

Бироқ дипломатик ҳужжатларда қўшиш ва тушириб қолдиришга алоҳида эҳтиёткорлик билан ёндашиш зарур. Масалан, мажбуриятни ифодаловчи “shall”, ҳуқуқни билдирувчи “may”, инкор шакли “not”, вақт ёки шарт чегарасини белгилайдиган “within”, “unless” каби воситаларни сабабсиз тушириш ҳуқуқий мазмунни ўзгартиради. Худди шунингдек, манбада мавжуд бўлмаган “барча ҳолларда”, “фақат”, “мажбур” каби чеклов ёки кучайтириш маъносини берувчи бирликларни таржимада қўшиш ҳам мумкин эмас. Демак, грамматик қўшиш ва тушириш тил меъёрини таъминлаш учун қўлланиши мумкин, аммо янги ҳуқуқий шарт ёки мажбурият яратиш воситасига айланмаслиги керак.

Хулоса

Қиёсий материаллардан келиб чиқадиган асосий кузатиш шундан иборатки, инглиз тилидаги shall конструкцияси рус тилидаги воздерживаются каби норматив ҳозирги замон шакли билан ифодаланиши мумкин; ўзбек тилида эса шу маъно феълнинг замон-шахс қўшимчалари ва гапнинг умумий синтактик қурилиши орқали берилади. Бу ҳолат грамматик эквивалентлик бир хил шаклни такрорлашни эмас, балки ҳуқуқий вазифа ва маънони тенг сақлашни талаб этишини тасдиқлайди.

Шу билан бирга, уч тилдаги ҳар қандай фарқни таржима трансформацияси деб баҳолаш тўғри эмас. Масалан, матнлар мустақил равишда келишилган ёки турли ҳуқуқий анъаналар асосида тузилган бўлса, улар ўртасидаги синтактик тафовут таржимон амалга оширган ўзгариш эмас, балки матнларни тузиш жараёнидаги фарқ бўлиши мумкин. Шунинг учун трансформацияни аниқлашда асл матн, таржима матни, ҳужжатнинг тил мақоми ва аутентиклик тўғрисидаги якуний қоида биргаликда текширилиши зарур.

Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар:

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод: вопросы общей и частной теории перевода. — М.: Международные отношения, 1975. — 239 с.

2. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). — М.: Высшая школа, 1990. — 250 с.

3. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation: An Essay in Applied Linguistics. — London: Oxford University Press, 1965.

4. Klaudy K. Languages in Translation: Lectures on the Theory, Teaching and Practice of Translation. — Budapest: Scholastica, 2007. — 383 p.

5. Charter of the United Nations. Official English text. United Nations. https://www.un.org/en/about-us/un-charter/full-text (мурожаат санаси: 25.10.2026).

6. Устав Организации Объединённых Наций. Официальный русский текст. Организация Объединённых Наций. https://www.un.org/ru/about-us/un-charter/full-text (мурожаат санаси: 25.10.2026).

7. Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги ва Адлия вазирлигининг 2020 йил 30 июндаги 54 ва 1-сон қарори билан тасдиқланган “Халқаро шартнома лойиҳасини тайёрлаш ... ҳақидаги услубий кўрсатмалар”. Рўйхат рақами 3273. https://lex.uz/docs/4939446 (мурожаат санаси: 21.10.2026).

8. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 6 февралдаги ЎРҚ-518-сон “Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида”ги Қонуни. LexUZ. https://lex.uz/docs/4830084 (мурожаат санаси: 21.10.2026).

9. Agreement between the Government of the United States of America and the Government of the Republic of Uzbekistan on Science and Technology Cooperation, 2 December 2010. U.S. Department of Energy. https://www.energy.gov/sites/default/files/pi_iec/098b7ef98006d8f1.pdf.

ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

MINTAQADA SAYYOHLAR UCHUN XAVFSIZ MUHIT YARATISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

Ahmedova Sevinch Davron qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
251-“Turizm va mehmondo'stlik”
mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqada sayyohlar uchun xavfsiz muhit yaratishning iqtisodiy ahamiyati, uning hududning turistik jozibadorligi, investitsion faolligi, xizmatlar bozori va aholi bandligiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, mintaqaviy turizmda xavfsizlik infratuzilmasini rivojlantirish, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish va turistik xizmatlar sifatini yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается экономическое значение создания безопасной среды для туристов в регионе, ее влияние на туристическую привлекательность региона, инвестиционную активность, рынок услуг и занятость. Также предлагаются меры по развитию инфраструктуры безопасности в региональном туризме, внедрению цифровых систем мониторинга и повышению качества туристических услуг.

Abstract. This article examines the economic significance of creating a safe environment for tourists within a region, highlighting its impact on the area’s tourism appeal, investment activity, the services market, and local employment. Furthermore, proposals are developed for advancing safety infrastructure in regional tourism, implementing digital monitoring systems, and enhancing the quality of tourism services.

Kalit so‘zlar. Turistik xavfsizlik, mintaqa, infratuzilma, resurs, bozor, turist.

Ключевые слова. Туристическая безопасность, регион, инфраструктура, ресурсы, рынок, турист.

Key words. Tourism safety, region, infrastructure, resource, market, tourist.

Bugungi globallashuv sharoitida turizm mintaqalar iqtisodiy rivojlanishining yo‘nalishi sifatida qayd etiladi. Chunki, turizm sohasi transport, mehmonxona xo‘jaligi, umumiy ovqatlanish, savdo, hunarmandchilik, madaniyat va ko‘ngilochar xizmatlar kabi ko‘pgina iqtisodiy tarmoqlarning o‘zaro rivojlanishida qo‘llaniladi. Biroq, mazkur tarmoqlarning barqaror faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan sayyohlar uchun yaratilgan xavfsiz muhitga bog‘liq bo‘ladi. Sayyohlar turistik yo‘nalishni tanlashda tarixiy-madaniy obektlar, tabiiy resurslar, xizmatlar narxi va transport imkoniyatlari bilan birgalikda shaxsiy xavfsizlik, sanitariya-gigiena sharoitlari, tibbiy yordam olish imkoniyati hamda axborot xavfsizligini hisobga oladilar. Shu

bois, turistik xavfsizlik mintaqaning raqobatbardoshligini belgilovchi iqtisodiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Mintaqada xavfsiz turistik muhitni shakllantirish ichki va xalqaro turistik oqimlarni jalb etish, turistik xizmatlar bozorini kengaytirish hamda hududning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish uchun qo‘llaniladi. Xavfsizlikni ta’minlashning iqtisodiy ahamiyati, birinchi navbatda, turistlarning hududga bo‘lgan ishonchi va sayohat qilish qarorlariga ta’siri orqali namoyon bo‘ladi. Bu borada mintaqada xavfsizlik va iqtisodiy-siyosiy barqarorlik darajasining yaxshilanishi xalqaro turistik oqimlarni ko‘paytirish bilan birgalikda turizm sohasida yaratiladigan qo‘shilgan qiymat hajmining ortishiga xizmat qiladi [1]. Shularga asosan, turistlar turistik manzilni tanlashda nafaqat uning tarixiy, tabiiy va madaniy salohiyatiga, balki jamoat tartibi, transport xavfsizligi, tibbiy xizmatlar sifati, sanitariya-gigiena holati va favqulodda vaziyatlarda yordam olish imkoniyatlariga e’tibor qaratadilar. Xavfsizlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda turistlarning sayohatni bekor qilish ehtimoli kamayadi, turistik xizmatlardan foydalanish ishonchliligi ortadi va hududning ijobiy imiji shakllanadi.

Xavfsiz muhit yaratishning iqtisodiy samarasi turizm bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tarmoqlar faoliyatida namoyon bo‘ladi. Jumladan, turistlar oqimining barqarorlashishi mehmonxonalar bandligini oshiradi, restoran va kafelar, transport korxonalari, savdo shoxobchalari, hunarmandchilik ustaxonalari hamda ekskursiya xizmatlari daromadlarining ko‘payishiga zamin yaratadi. Natijada, turizmning multiplikativ ta’siri orqali boshqa iqtisodiy faoliyat turlarida ham qo‘shimcha talab yuzaga keladi. Chunki, turistik manzillarda xavfsizlik bilan bog‘liq salbiy hodisalarning muntazam takrorlanishi turistlarning hududga tashrif buyurish qarorlariga salbiy ta’sir ko‘rsatib, xalqaro turistik talabning qisqarishiga olib kelishi mumkin, shu sababli xavfsizlikni ta’minlashda profilaktik chora-tadbirlarning uzluksizligini ta’minlash lozim hisoblanadi [2].

Bundan tashqari, xavfsizlik infratuzilmasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy natijalarni shakllantiradi. Masalan, turistik hududlarda videokuzatuv tizimlari, yoritish vositalari, favqulodda aloqa nuqtalari, tibbiy yordam punktlari, turistlar uchun axborot markazlari va maxsus xavfsizlik xizmatlarini tashkil etish dastlabki xarajatlarni talab qiladi. Bu holatda turistik xavfsizlikka tahdidlar faqat turistlar sonining kamayishiga emas, balki mehmonxona, transport, umumiy ovqatlanish va boshqa xizmat ko‘rsatish tarmoqlari faoliyatining susayishi, bandlik hamda yalpi ichki mahsulot shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy oqibatlarga ham sabab bo‘ladi [3]. Biroq, ushbu xarajatlar turistlar ishonchini mustahkamlash, hodisalar oqibatida yuzaga keladigan iqtisodiy zararlarni kamaytirish va turistik xizmatlar bozorining uzluksiz ishlashini ta’minlash orqali o‘zini iqtisodiy jihatdan oqlashi mumkin.

Mintaqada sayyohlar uchun xavfsiz muhitni yaratish kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda davlat boshqaruvi organlari, turizm tashkilotlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, tibbiyot muassasalari, transport korxonalari va xususiy tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqada xavfsiz turistik muhitni yaratish samaradorligini

baholash uchun ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin. Bunda xavfsizlikka sarflangan mablag‘larning natijadorligi, turistlar oqimining o‘zgarishi, turistik xizmatlardan tushgan daromadlar va bandlik ko‘rsatkichlari asosiy mezon sifatida olinadi.

Xulosa qilib aytganda, mintaqada sayyohlar uchun xavfsiz muhit yaratish turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta’minlaga imkon beradi. Xavfsizlik darajasining yuqoriligi turistlarning hududga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, turistik talabning barqarorligini ta’minlaydi, xizmatlar bozoridagi iqtisodiy faollikni oshiradi hamda mahalliy aholi bandligi va daromadlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holatda xavfsizlik infratuzilmasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarni faqat xarajat sifatida emas, balki mintaqaning turistik raqobatbardoshligi, iqtisodiy barqarorligi va investitsion jozibadorligini oshiruvchi uzoq muddatli iqtisodiy resurs sifatida baholash lozim. Shu bois, turistik xavfsizlikni hududiy rivojlanish dasturlariga integratsiya qilish, raqamli monitoring tizimlarini kengaytirish va davlat-xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Manrique-de-Lara-Peñate, C., Santana-Gallego, M., & Valle, E. (2022). The economic impact of global uncertainty and security threats on international tourism. Economic Modelling, 113, 105892. https://doi.org/10.1016/j.econmod.2022.105892

2. Pizam, A., & Fleischer, A. (2002). Severity versus frequency of acts of terrorism: Which has a larger impact on tourism demand? Journal of Travel Research, 40(3), 337–339. https://doi.org/10.1177/0047287502040003011

3. Akamavi, R. K., Ibrahim, F., & Swaray, R. (2023). Tourism and troubles: Effects of security threats on the global travel and tourism industry performance. Journal of Travel Research, 62(8), 1755–1800. https://doi.org/10.1177/00472875221138792

HUDUDIY SANOAT RIVOJLANISHINING IQTISODIY XUSUSIYATLARI

To‘rayeva So‘najon Kamiljon qizi,
Osiyo Xalqaro Universiteti
Muhandislik, ta`lim va boshqaruv fakulteti
Biznes va boshqaruv kafedrasi “Iqtisodiyot” mutaxassisligi
MM102-IQT-26 guruhi magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududiy sanoat rivojlanishining asosiy zaruriyati, mavjud imkoniyatlari va iqtisodiy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, hududiy sanoat rivojlanishining iqtisodiy xususiyatlarini tadqiq qilish yuzasidan xulosa bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные потребности, существующие возможности и экономические характеристики регионального промышленного развития. Также представлены выводы по результатам исследования экономических характеристик регионального промышленного развития.

Abstract. This article examines the fundamental necessity, existing opportunities, and economic characteristics of regional industrial development. Furthermore, it presents conclusions drawn from the study of the economic features of regional industrial development.

Kalit so‘zlar. Sanoat, hududiy sanoat, iqtisodiyot, ishlab chiqarish, klaster.

Ключевые слова. Промышленность, региональная промышленность, экономика, производство, кластер.

Key words. Industry, regional industry, economy, production, cluster.

Hududiy sanoat rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlash, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish omili bo‘lib hisoblanadi. Sanoat tarmog‘i hudud iqtisodiyotining tarkibiy qismi sifatida tabiiy resurslar, mehnat salohiyati, ishlab chiqarish infratuzilmasi, investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarning o‘zaro uyg‘unlashuvini ta’minlaydi. Shu bois, hududiy sanoat rivojlanishini faqat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan emas, balki ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligi, hududiy ixtisoslashuv, qo‘shilgan qiymat yaratish va raqobatbardoshlik darajasi orqali baholash lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat ishlab chiqarishining hududiy tashkil etilishi iqtisodiy samaradorlikni belgilaydigan muhim omillardan biriga aylanmoqda. Har bir hududning tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlari, xomashyo bazasi, mehnat resurslari, iste’mol bozori va transport-logistika infratuzilmasi sanoat tarmoqlarining shakllanishi hamda rivojlanishiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur sharoitda hududiy sanoat siyosatini ishlab chiqishda mahalliy iqtisodiy ustunliklarni

aniqlash, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish va mavjud resurslardan kompleks foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududiy sanoat rivojlanishining birinchi muhim iqtisodiy xususiyati ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashuvi va ixtisoslashuvi bilan ifodalanadi. Sanoat korxonalarining joylashuvi tasodifiy jarayon bo‘lmasdan, balki xomashyo manbalari, energiya resurslari, mehnat bozori, transport xarajatlari va mahsulotlarga bo‘lgan talab ta’sirida shakllanadi. Masalan, qishloq xo‘jaligi rivojlangan hududlarda oziq-ovqat va to‘qimachilik sanoati, mineral resurslarga boy hududlarda konchilik va qurilish materiallari ishlab chiqarish, yirik shaharlar atrofida esa mashinasozlik, elektrotexnika va kimyo sanoatini rivojlantirish uchun iqtisodiy imkoniyatlar mavjud bo‘ladi. Unga ko‘ra, sanoat korxonalarining muayyan hududlarda to‘planishi ko‘lam samarasi, transport xarajatlari va iqtisodiy aglomeratsiyaga asoslangan ishlab chiqarish omillarining harakatchanligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik natijasida yuzaga keladi. Iqtisodiy aglomeratsiya - sanoat korxonalari, mehnat resurslari, ta’minotchilar va xizmat ko‘rsatuvchi sub’ektlarning muayyan hududda konsentratsiyalashuvi natijasida ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi, ixtisoslashuvning chuqurlashuvi va tashqi iqtisodiy samaralarning kuchayishini ifodalovchi iqtisodiy jarayondir [1].

Avvalo, hududiy sanoatning resurs salohiyati va undan foydalanish samaradorligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Sanoat korxonalarining iqtisodiy natijalari ishlab chiqarish jarayoniga jalb etilgan mehnat, kapital, moddiy va moliyaviy resurslarning miqdori bilan birgalikda ulardan qay darajada samarali foydalanilayotganiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli hududiy sanoatni baholashda mehnat unumdorligi, fond qaytimi, material qaytimi, mahsulot tannarxi, ishlab chiqarish rentabelligi va energiya sig‘imi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Investitsion faollik va asosiy kapitalni modernizatsiya qilishda esa investitsiyalar sanoat korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish uchun iqtisodiy asos yaratadi. Tarmoqlararo kooperatsiya va sanoat klasterlarining shakllanishida xomashyo yetkazib beruvchi, qayta ishlovchi, tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi va logistika xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar mustahkamlanadi.

Hududiy sanoatning rivojlanishida sanoat klasteri muayyan hududda o‘zaro iqtisodiy va texnologik jihatdan bog‘liq korxonalar, ixtisoslashgan ta’minotchilar, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar va ilmiy-ta’lim muassasalarining geografik konsentratsiyasi natijasida raqobat va kooperatsiya orqali hududning raqobat ustunliklarini kuchaytiradi [2]. Mehnat resurslaridan foydalanish va bandlik samaradorligini oshirish borasida sanoat korxonalarining rivojlanishi hududda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish, kasbiy malaka va mehnat kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu borada hududiy sanoat ixtisoslashuvi - muayyan hududning tabiiy, mehnat, kapital va infratuzilma ustunliklariga asoslangan holda ayrim sanoat tarmoqlarining nisbatan ustuvor rivojlanishi hamda ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiyalashuvi jarayonidir

[3]. Shularga muvofiq, sanoat ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini baholashda mahsulot hajmi va foyda ko‘rsatkichlari va tabiiy resurslardan foydalanish, energiya sarfi, chiqindilarni qayta ishlash va atrof-muhitga ta’sir darajasi hisobga olinishi zarur.

Hududiy sanoat rivojlanishining iqtisodiy xususiyatlarini o‘rganishda uning samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortishi doimo ishlab chiqarish samaradorligining oshganligini anglatmaydi. Samaradorlikni aniqlashda ishlab chiqarish natijalari bilan ushbu natijalarga erishish uchun sarflangan resurslar o‘rtasidagi nisbatni baholash talab etiladi. Bu holatda hududiy sanoatning iqtisodiy ixtisoslashuv koeffitsientini aniqlash lozim. Agar mazkur koeffitsient 1 dan yuqori bo‘lsa, bu hududning tegishli sanoat tarmog‘ida mamlakat o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan yuqori ixtisoslashuv mavjudligini anglatadi.

Xulosa shuki, hududiy sanoat rivojlanishining iqtisodiy xususiyatlari ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashuvi, iqtisodiy ixtisoslashuv, resurslardan foydalanish samaradorligi, investitsion faollik, sanoat klasterlari, innovatsion rivojlanish va eksport salohiyati kabi omillarning o‘zaro ta’sirida namoyon bo‘ladi. Ushbu omillarning uyg‘unlashuvi hududiy sanoatning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, hududiy sanoat rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirish ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish bilangina cheklanmasdan, balki hududning mavjud resurs salohiyatidan oqilona foydalanish, iqtisodiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish, innovatsion faollikni kuchaytirish va ishlab chiqarish zanjirlarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks iqtisodiy mexanizmni shakllantirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fujita, M., Krugman, P., & Venables, A. J. (1999). The Spatial Economy: Cities, Regions, and International Trade. Cambridge, Massachusetts: The MIT Press, 382 p. https://doi.org/10.7551/mitpress/6389.001.0001

2. Porter, M. E. (2000). Location, Competition, and Economic Development: Local Clusters in a Global Economy. Economic Development Quarterly, 14(1), 15-34. https://doi.org/10.1177/089124240001400105

3. Krugman, P. (1991). Increasing Returns and Economic Geography. Journal of Political Economy, 99(3), 483-499. https://doi.org/10.1086/261763

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

THE EFFECTIVENESS OF BLENDED LEARNING IN DEVELOPING CADETS' COMMUNICATIVE SKILLS

Acting Associate Professor,
Doctor of Philosophy in Pedagogy
Shakhnoza Murakayeva
Department of Learning languages
University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan
sh.murakayeva@gmail.com

Shakhnoza Tuychibayeva
Associate Professor, Doctor of Philosophy in Pedagogy
Department of Western languages, Tashkent State University of Oriental Studies, Tashkent, Uzbekistan
Department of Learning languages
University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan
shahnoza2909shakir@jmail.com

Abstract. Blended learning, an educational approach combining traditional face-to-face instruction with online learning, has been widely recognized for its effectiveness in language acquisition, especially in ESL (English as a Second Language) programs. This study explores the role of blended learning methods in enhancing the communicative skills of cadets in ESL education. By integrating digital resources with interactive classroom practices, blended learning not only boosts engagement but also fosters critical language competencies. This paper presents an overview of the blended learning approach, its impact on communicative skills development, and its specific advantages in the structured, regimented environment of military education.

Introduction. The demand for proficient English communication skills among cadets in military institutions has increased due to the global nature of defense operations and international collaboration. ESL programs for cadets require effective teaching strategies to address unique challenges: maintaining discipline, fostering engagement in a strict environment, and developing practical language skills that cadets can employ in international settings. Blended learning, combining in-person and online instructional approaches, has shown promise in enhancing communicative skills and providing a flexible, adaptable framework for cadet education.

Despite the importance of communicative skills in military contexts, cadets often face difficulties in achieving proficiency. Traditional language instruction methods can fall short in maintaining engagement and fail to provide sufficient interactive practice. This paper argues that a blended learning approach, which integrates


modern technology and interactive learning, is especially suited to addressing these challenges. The primary aim of this paper is to evaluate the effectiveness of blended learning methods in enhancing communicative skills for ESL instruction among cadets. The study examines specific blended learning tools, strategies, and their impact on ESL learning outcomes in military settings.

Literature Review. The literature on blended learning highlights its potential to create more interactive, learner-centered environments that support language acquisition. Studies by Graham (2006) and Garrison & Kanuka (2004) emphasize the importance of combining digital and traditional methods, arguing that blended learning can enhance motivation and cater to various learning styles, which is particularly beneficial in language learning.

In military education, communicative competence is crucial. Research by Taguchi (2015) suggests that interactive learning approaches, like blended learning, help students to overcome barriers in language production and enhance fluency. Additionally, with cadets often having limited exposure to English outside the classroom, blended learning provides essential supplementary resources that extend language learning beyond the conventional classroom setting.

Participants. The study was conducted at a military academy with a sample of 60 cadets enrolled in an ESL program. The participants were divided into two groups: one using a traditional face-to-face learning method and the other implementing a blended learning approach.

For the blended learning group, a combination of digital resources was employed. These included:




The intervention spanned a 10-week period. Both groups attended regular in-person classes, but the blended learning group was additionally assigned weekly online tasks aimed at enhancing communicative skills. Both groups were tested for

communicative competence before and after the intervention using standardized speaking and listening tests.

Data analysis revealed a statistically significant improvement in communicative skills among cadets in the blended learning group compared to the traditional learning group. The blended group displayed a 30% increase in speaking fluency scores, as well as improved listening comprehension and pronunciation accuracy. Self-reports indicated higher engagement and motivation levels, with cadets appreciating the flexibility of accessing online materials and interacting with native speakers through virtual platforms.

Key Findings



- **Increased Interaction:** The blended model facilitated more interaction through online discussions, where cadets could practice speaking and receive real-time feedback.
- **Enhanced Motivation:** The digital components helped sustain engagement, offering a diverse range of activities that kept cadets motivated throughout the course.
- **Greater Autonomy:** Blended learning allowed cadets to take control of their learning pace, promoting self-directed study that traditional classroom instruction lacks.

The findings align with existing literature on the benefits of blended learning in language acquisition. This approach enables cadets to engage in collaborative, meaningful communication, which is crucial for their future roles. The military context benefits uniquely from blended learning due to the regimented lifestyle of cadets, who require both structure and flexibility. The online component provides a safe environment for trial and error, encouraging cadets to experiment with language without fear of judgment. In contrast, the traditional model proved less effective in fostering communicative skills, as it limited opportunities for spontaneous, unstructured communication. Blended learning bridges this gap by providing platforms that encourage cadets to think and respond quickly, akin to real-life communication scenarios.

This study highlights the advantages of blended learning methods in developing communicative skills for ESL instruction among cadets. The findings demonstrate that blended learning provides essential flexibility, encourages engagement, and fosters language proficiency through interactive, student-centered methods. For military institutions, incorporating blended learning into ESL programs could significantly enhance language training outcomes, equipping cadets with the communicative skills necessary for international operations.

Recommendations for Future Research. Future studies should consider examining the long-term effects of blended learning on language retention and investigating how specific blended learning tools can be tailored to various language competencies, such as speaking, listening, and writing. Additionally, further research could explore how blended learning can be adapted to different proficiency levels, ensuring optimal outcomes across diverse cadet cohorts.

References

1. Garrison, D. R., & Kanuka, H. (2004). Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. *Internet and Higher Education*, 7(2), 95-105.
2. Graham, C. R. (2006). Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions. In Bonk, C. J. & Graham, C. R. (Eds.), *Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs* (pp. 3-21). San Francisco: Pfeiffer Publishing.
3. Taguchi, N. (2015). Instructed pragmatics at a glance: Where instructional studies were, are, and should be going. *State of the Art Research in Second Language Teaching and Learning*, 17-32.

TA’LIM SIFATI MENEJMENTINING INNOVATSION MODELLARI VA MAKTABGAÇA TA’LIM TAŞKILOTI TARBIYAÇILARINI LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRIŞ MEXANIZMI

Sapayeva Umida Rustamovna
Urganç RANÇ texnologiya universiteti öqituvçisi
Matkarimova Marhabo Botirboy qizi
Urganç RANÇ texnologiya universiteti
“Maktabgaça ta’lim” yönalişi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgaça ta’lim taşkilotlari direktorlarining liderlik salohiyatini rivojlantiriş zarurati nazariy va ilmiy nuqtai nazardan asoslab berilgan. Rahbarlik faoliyatida liderlik kompetensiyalari muhim omil sifatida e’tirof etilib, ularni şakllantiriş va rivojlantirişga xizmat qiluvçi pedagogik-metodik yondaşuvlar tavsiflangan. Şuningdek, zamonaviy liderlik sifatlariga ega rahbarlarning ta’lim sifati, boşqaruv samaradorligi hamda taşkilot faoliyatining natijadorligiga ta’siri tahlil qilingan.

Kalit sözlar: *liderlik kompetensiyalari, maktabgaça ta’lim taşkiloti, ta’lim menejmenti, boşqaruv salohiyati, strategik rejalaştiriş, innovatsion boşqaruv, rahbarlik faoliyati, emotsional intellekt, motivatsiya, pedagogik jamoa.*

Аннотация. В данной статье с теоретической и научной точек зрения обосновывается необходимость развития лидерского потенциала руководителей дошкольных образовательных организаций. Лидерские компетенции рассматриваются как важный фактор управленческой деятельности, а также описываются педагогические и методические подходы, направленные на их формирование и развитие. Кроме того, анализируется влияние руководителей, обладающих современными лидерскими качествами, на качество образования, эффективность управления и результативность деятельности образовательной организации.

Ключевые слова: лидерские компетенции, дошкольная образовательная организация, образовательный менеджмент, управленческий потенциал, стратегическое планирование, инновационное управление, лидерская деятельность, эмоциональный интеллект, мотивация, педагогический коллектив.

Abstract. This article substantiates the necessity of developing the leaderşip potential of directors of presçool educational organizations from theoretical and scientific perspectives. Leaderşip competencies are recognized as an important factor in managerial activity, and pedagogical and methodological approaçes aimed at their formation and development are described. Furthermore, the article analyzes the impact of leaders possessing modern leaderşip qualities on the quality of education, management effectiveness, and the overall performance of educational institutions.

***Keywords*:** leaderşip competencies, presçool educational organization, educational management, managerial capacity, strategic planning, innovative management, leaderşip activity, emotional intelligence, motivation, pedagogical team.

Bugungi globallaşuv va raqamli transformatsiya şaroitida oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qiliş davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanişida muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardoş va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlaş uçun oliy ta’lim dasturlarini muntazam yangilab boriş zarur. Şu sababli ta’lim mazmunini takomillaştiriş, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etiş hamda ta’lim sifati menejmentining samarali modellaridan foydalaniş dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Oliy ta’lim dasturlarini modernizatsiya qiliş avvalo öquv rejalari va fan dasturlarini zamon talablariga moslaştirişni nazarda tutadi. Bunda kompetensiyaviy yondaşuv asosida talabalarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy könikmalari, tanqidiy fikrlaşi, muammolarni hal etiş qobiliyati va raqamli savodxonligini rivojlantirişga alohida e’tibor qaratiladi. Şuningdek, ta’lim jarayoniga interaktiv metodlar, masofaviy ta’lim platformalari, sun’iy intellekt vositalari va elektron resurslarini keng joriy etiş ta’lim samaradorligini oşiradi.

Ta’lim sifati menejmentining innovatsion modellari esa ta’lim muassasalari faoliyatini uzluksiz takomillaştirişga xizmat qiladi. Bunday modellardan biri Total Quality Management (TQM) konsepsiyasi bölib, u ta’lim jarayonining barça iştirokçilarini sifatni oşiriş jarayoniga jalb etişni nazarda tutadi. Bundan taşqari, ISO standartlariga asoslangan sifat menejmenti tizimlari, natijaga yönaltirilgan boşqaruv modeli hamda içki va taşqi baholaş mexanizmlarining uyğunligi ta’lim sifatini nazorat qiliş va rivojlantiriş imkonini beradi.

Innovatsion sifat menejmenti modellarining muhim jihatlaridan biri ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilişdir. Bunda talabalar özlaştirişi, bitiruvçilarning bandlik darajasi, iş beruvçilarning fikrlari va xalqaro reyting körsatkiçlari muntazam tahlil qilinadi. Olingan natijalar asosida ta’lim dasturlari takomillaştirilib, mavjud kamçiliklar bartaraf etiladi. Şu bilan birga, akademik mobillik, xalqaro hamkorlik va qöşma ta’lim dasturlarini rivojlantiriş ham sifatni oşirişning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta’lim sifati menejmenti maktabgaça ta’lim tizimida bolalarning har tomonlama rivojlanişini ta’minlaşga qaratilgan boşqaruv jarayonidir. U ta’lim-tarbiya sifatini muntazam nazorat qiliş, pedagoglar faoliyatini takomillaştiriş va zamonaviy metodlarni joriy etişni öz içiga oladi. Maktabgaça ta’lim taşkilotlarida sifat menejmenti bolalarning yoş va individual xususiyatlariga mos ta’lim muhitini yaratiş, ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yölga qöyiş hamda ta’lim jarayonining natijadorligini oşirişga xizmat qiladi. Innovatsion yondaşuvlar va sifat nazorati mexanizmlarining qöllanilişi maktabgaça ta’limning samaradorligini oşirib, bolalarning keyingi bosqiçdagi ta’limga muvaffaqiyatli tayyorlanişiga zamin yaratadi.

Mamlakatimizda maktabgaça ta’lim tizimini yanada rivojlantiriş va zamonaviy talablar asosida takomillaştirişga qaratilgan islohotlar natijasida uşbu sohadagi boşqaruv faoliyatini yangi sifat bosqiçiga olib çiqiş ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda [1]. Şu nuqtai nazardan, maktabgaça ta’lim taşkilotlari

direktorlarida an’anaviy boşqaruv könikmalari bilan bir qatorda samarali liderlik kompetensiyalarini şakllantiriş va rivojlantiriş masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.Maktabgaça ta’lim rahbari uçun liderlik kompetensiyalari

Liderlik sifatlarining mazmun-mohiyati. Zamonaviy boşqaruv konsepsiyalarida liderlik şaxslarning umumiy maqsadlarga erişiş yölida faoliyatini muvofiqlaştiriş, ularni ruhlantiriş, yönaltiriş hamda samarali faoliyatga undaş jarayoni sifatida talqin etiladi. Boşqaruv asosan rejalaştiriş, taşkil etiş, nazorat qiliş va muvofiqlaştiriş funksiyalarini öz içiga olsa, liderlik insonlarga ta’sir körsatiş, ularni ortidan ergaştiriş va jamoani yagona maqsad sari safarbar etiş qobiliyatini ifodalaydi. Şu bois maktabgaça ta’lim taşkiloti rahbari faoliyatida boşqaruv va liderlik bir-birini töldiruvçi özaro uzviy boğliq tuşunçalar sifatida namoyon böladi.

Strategik fikrlaş. Strategik fikrlaş liderlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri bölib, rahbarning mavjud muammolarni nafaqat bugungi kun nuqtai nazaridan, balki uzoq muddatli rivojlaniş istiqbollari asosida baholaş qobiliyatini anglatadi. Uşbu sifat rahbarga ustuvor vazifalarni aniqlaş, aniq maqsadlarni belgilaş va ularga erişiş uçun samarali harakatlar rejasini işlab çiqiş imkonini beradi. Strategik fikrlaşga ega bölgan rahbar jamoaning salohiyatini töğri yönaltira oladi, xodimlarni umumiy maqsad atrofida birlaştiradi hamda ta’lim taşkilotining barqaror rivojlanişini ta’minlaydi. Bunday lider öz faoliyatida yuzaga kelişi mumkin bölgan imkoniyat va xavflarni oldindan köra bilişi, özgaruvçan şaroitlarga moslaşgan holda samarali boşqaruv qarorlarini qabul qilişi bilan ajralib turadi.

Muloqot madaniyati. Muloqot madaniyati liderlikning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi [2]. Samarali lider öz jamoasi bilan oçiq, samimiy va özaro hurmatga asoslangan munosabatlarni yölga qöya oladi. U axborotni aniq va tuşunarli tarzda yetkaziş, xodimlarning fikr-mulohazalarini tinglaş hamda taklif va taşabbuslarga ijobiy munosabat bildiriş qobiliyatiga ega böladi. Bunday yondaşuv jamoa a’zolari örtasida özaro işonçni mustahkamlaydi, hamkorlik muhitini şakllantiradi va umumiy maqsadlarga erişişda faol iştirok etişga undaydi.

Emotsional intellekt. Emotsional intellekt rahbarning öz his-tuyğularini anglaş, ularni nazorat qila biliş hamda atrofdagilarning emotsional holatini töğri tuşuniş qobiliyatini ifodalaydi [3]. Zamonaviy lider uçun uşbu sifat alohida ahamiyatga ega bölib, u jamoada soğlom psixologik muhit yaratiş, xodimlar motivatsiyasini oşiriş va turli nizoli vaziyatlarni samarali hal etişda muhim omil hisoblanadi [4]. Emotsional intellekti rivojlangan rahbar öz xatti-harakatlarini vaziyatga mos ravişda boşqara oladi, jamoa a’zolarining ehtiyoj va his-tuyğulariga nisbatan sezgir böladi hamda ularga psixologik jihatdan qöllab-quvvatlaş körsatadi. Natijada taşkilotda özaro hurmat, hamjihatlik va ijobiy iş muhiti şakllanib, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligi oşadi.

Liderlik sifatlarini şakllantirişning amaliy yondaşuvlari. Maktabgaça ta’lim taşkilotlari rahbarlarida liderlik kompetensiyalarini rivojlantiriş maqsadida turli amaliy mexanizmlardan foydalaniş muhim hisoblanadi. Uşbu jarayonda treninglar, seminarlar, mentorlik dasturlari, kouçing texnologiyalari hamda baholaş tizimlari samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Treninglar va seminarlar. Liderlik kompetensiyalarini rivojlantirişga

qaratilgan trening va seminarlar rahbarlarning nazariy bilimlarini boyitiş, amaliy könikmalarini mustahkamlaş hamda zamonaviy boşqaruv yondaşuvlarini özlaştiriş imkonini beradi. Bunday maşğulotlar davomida muloqot madaniyati, jamoani boşqariş, nizolarni hal etiş, strategik rejalaştiriş va motivatsiya beriş kabi muhim masalalar yuzasidan tajriba almaşiş imkoniyati yaratiladi.

Mentorlik va couçing. Mentorlik va kouçing texnologiyalari rahbarlarning individual rivojlanişiga xizmat qiluvçi samarali yondaşuvlardan biridir. Tajribali rahbar tomonidan beriladigan maslahatlar yoş rahbarlarning kasbiy moslaşuvi hamda liderlik salohiyatini rivojlantirişda muhim ahamiyatga ega.

Baholaş tizimlari. Liderlik sifatlarini rivojlantirişda baholaş tizimlaridan foydalaniş alohida ahamiyat kasb etadi. Baholaş natijalari rahbarning kuçli va rivojlantirilişi lozim bölgan jihatlarini aniqlaş imkonini beradi. Öz-özini baholaş, hamkasblar fikri, ekspert tahlili va faoliyat natijalarini monitoring qiliş orqali liderlik kompetensiyalarining rivojlaniş darajasi muntazam nazorat qilinadi.

Maktabgaça ta’lim taşkilotlari rahbarlarining liderlik salohiyati ta’lim jarayonining sifatini oşiriş, pedagogik jamoaning samarali faoliyat yuritişini ta’minlaş hamda tarbiyalanuvçilarning har tomonlama kamol topişi uçun qulay ta’lim muhitini şakllantirişda muhim örin tutadi. Şu bois taşkilot direktorlarining liderlik kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirib borişi, innovatsion yondaşuvlarga oçiq bölişi va zamonaviy talablarga mos ravişda faoliyat yuritişi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa va tavsiyalar. Maktabgaça ta’lim taşkilotlari rahbarlarining liderlik sifatlarini rivojlantiriş ta’lim tizimini takomillaştirişning muhim strategik omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy rahbar nafaqat boşqaruv funksiyalarini samarali amalga oşira olişi, balki jamoani ortidan ergaştira oladigan, innovatsion ğoyalarni ilgari suradigan va xodimlarni umumiy maqsad sari birlaştira oladigan lider bölişi zarur. Şu munosabat bilan quyidagi tavsiyalarni amalga oşiriş maqsadga muvofiq hisoblanadi:maktabgaça ta’lim taşkilotlari rahbarlari uçun liderlik kompetensiyalarini rivojlantirişga qaratilgan maxsus öquv dasturlarini joriy etiş; rahbarlarning malakasini oşiriş kurslarida liderlik va boşqaruv psixologiyasi böyiça modullar uluşini kengaytiriş; mentorlik va kouçing tizimlarini rivojlantiriş orqali tajriba almaşiş mexanizmlarini takomillaştiriş; innovatsion boşqaruv yondaşuvlarini amaliyotga tatbiq etişni rağbatlantiriş; liderlik kompetensiyalarini muntazam baholab boriş va ularni rivojlantiriş böyiça individual dasturlar işlab çiqiş. Natijada maktabgaça ta’lim taşkilotlari rahbarlarining liderlik salohiyati yuksalib, ta’lim muassasalari faoliyatining samaradorligi, boşqaruv sifati hamda ta’lim-tarbiya jarayonining natijadorligi sezilarli darajada oşadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Özbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi ÖRQ-637-sonli “Ta’lim töğrisida”gi Qonuni.
2. Özbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi ÖRQ-595-sonli “Maktabgaça ta’lim va tarbiya töğrisida”gi Qonuni.

3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toşkent: Fan va texnologiya, 2022.
4. Ğoziyev E.Ğ. Umumiy psixologiya. – Toşkent: Özbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020.
5. Nişonova Z.T., Alimuhamedova D.A. Yoş va pedagogik psixologiya. – Toşkent: Öqituvçi, 2021.
6. Raximov A.A. Ta’lim menejmenti. – Toşkent: Tafakkur, 2022.
7. Qurbonov Ş., Seytxalilov E. Ta’lim menejmenti. -T: Turon-Iqbol, 2020.
8. Подласый И.П. Педагогика. – Москва: Юрайт, 2021.
9. Сластенин В.А. Педагогика. – Москва: Академия, 2020.

TA’LIM ANALITIKASI ASOSIDA ÖQITUVÇINING PEDAGOGIK QAROR QABUL QILIŞ KOMPETENSIYASINI ŞAKLLANTIRIŞ

Kayumova Mexribonu Şeraliyevna
Xalqaro Nordik universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)
E-mail: kayumovamexribonu@gmail.com;

ANNOTATSIYA: Maqolada raqamli öquv platformalarida töplanayotgan ma’lumotlardan öqituvçining pedagogik qaror qabul qilişda foydalaniş masalasi tahlil qilingan. Ta’lim analitikasi asosida pedagogik qaror qabul qiliş kompetensiyasining tarkibiy qismlari, qarorlarning uç darajasi hamda “savol – talqin – qaror – harakat – tekşiruv” sikliga asoslangan şakllantiriş modeli taklif etilgan. Ma’lumotlardan foydalanişning etik çeklovlari va xavflari körsatib ötilgan.

KALIT SÖZLAR: *ta’lim analitikasi, pedagogik qaror, ma’lumotlarga asoslangan öqitiş, ma’lumot savodxonligi, raqamli öquv platformasi, öqituvçi kompetensiyasi.*

Kiriş. Oliy ta’lim muassasalarida raqamli öquv platformalari va axborot tizimlaridan foydalaniş kengaygani sari talabalarning öquv faoliyati haqida juda katta hajmdagi ma’lumot töplanmoqda: kim qaysi materialni qaçon oçgani, topşiriqni qança vaqtda bajargani, testning qaysi savolida köproq xato qilgani va hokazo. Aralaş ta’lim va “töntarilgan sinf” metodlarini joriy etiş böyiça tajribamiz şuni körsatdiki, bunday ma’lumotlar öqituvçi uçun talabaning auditoriyadan taşqaridagi faoliyatini körişning deyarli yagona manbaidir [1]. Biroq amalda bu ma’lumotlarning katta qismi foydalanilmay qolmoqda, öqituvçining pedagogik qarorlari esa köpinça sezgi va oldingi tajribaga tayanmoqda.

R. Shavelson yarim asr oldin pedagogik qaror qabul qilişni öqituvçining asosiy kasbiy könikmasi deb atagan edi [2]. Bugun bu könikmaning mazmuni özgarmoqda: öqituvçidan nafaqat kuzatiş va tajribaga, balki raqamli ma’lumotlarga ham tayangan holda qaror qabul qiliş talab etilmoqda. Maqolaning maqsadi – ta’lim analitikasi asosida öqituvçining pedagogik qaror qabul qiliş kompetensiyasining tarkibini aniqlaş va uni şakllantiriş modelini asoslaşdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. J. Siemens va F. Long ta’lim analitikasini öqiş jarayoni va u keçadigan muhitni tuşuniş va takomillaştiriş maqsadida öquvçilar haqidagi ma’lumotlarni ölçaş, yiğiş, tahlil qiliş va taqdim etiş sifatida ta’riflaydi [3]. D. Gaşeviç va hammualliflari esa ta’lim analitikasi texnologiya emas, avvalo, öqiş haqida ekanini, ya’ni körsatkiçlar pedagogik nazariya va kontekstdan ajratib talqin qilinsa, notöğri xulosalarga olib kelişini ta’kidlaydi [4].

E. Mandinach ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilişni ma’lumotni axborotga, axborotni esa amaliy bilimga aylantiriş jarayoni sifatida tavsiflaydi [5].

E. Mandinach va E. Gummer öqituvçining ma’lumot savodxonligini alohida kasbiy kompetensiya sifatida ajratib, uning tarkibiga savol qöyiş, ma’lumotdan foydalaniş, ma’lumotni axborotga aylantiriş, axborotni pedagogik harakatga aylantiriş va natijani baholaş könikmalarini kiritadi [6]. A. Wise va Y. Jung tadqiqotida esa öqituvçi analitik ma’lumot bilan işlaganda ikki bosqiçdan ötişi – avval ma’lumotdan ma’no çiqarişi, söngra pedagogik javob tanlaşi – körsatilgan va aynan ikkinçi bosqiç eng zaif böğin ekani aniqlangan [7].

Ta’limni boşqarişda ma’lumotlarga asoslangan öqitiş va real vaqt rejimida qaror qabul qiliş [8], taqsimlangan ma’lumotlar tizimlari asosida boşqaruv qarorlarini qöllab-quvvatlaş [9] hamda intellektual tizimlarni ta’lim boşqaruviga joriy etiş [10] masalalari böyiça avvalgi tadqiqotlarimizda asosiy e’tibor tizim va boşqaruv darajasiga qaratilgan edi. Uşbu maqolada esa masala öqituvçi darajasida, ya’ni auditoriyadagi pedagogik qaror nuqtai nazaridan körib çiqiladi. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va pedagogik modellaştiriş metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Nazariy tahlil asosida ta’lim analitikasiga tayangan pedagogik qaror qabul qiliş kompetensiyasining beş tarkibiy qismi ajratildi (1-jadval). Ular bir-biriga ketma-ket boğlangan va birgalikda “savol – talqin – qaror – harakat – tekşiruv” siklini hosil qiladi.

Pedagogik qarorlarni vaqt ölçoviga köra uç darajaga ajratiş maqsadga muvofiq. Birinçisi – maşğulot davomidagi tezkor qarorlar: masalan, onlayn sörov natijasiga köra mavzuni qayta tuşuntiriş yoki keyingisiga ötiş. Ikkinçisi – qisqa muddatli qarorlar: haftalik körsatkiçlar asosida ortda qolayotgan talabalar bilan individual işlaş, topşiriqlar muddatini yoki şaklini özgartiriş.

1-jadval

Ta’lim analitikasi asosida pedagogik qaror qabul qiliş kompetensiyasining tarkibi

Tarkibiy qism	Mazmuni	Namoyon bölişi
Savol qöyiş	Pedagogik muammoni ma’lumot orqali javob topiş mumkin bölgan savolga aylantiriş	“Qaysi mavzuda talabalar köproq qiynalmoqda?” kabi aniq savol tuza oladi
Talqin qiliş	Körsatkiçlarning ma’nosi va çeklovlarini tuşuniş	Platformada ötkazilgan vaqt özlaştiriş emasligini, boğliqlik sabab emasligini farqlaydi
Pedagogik xulosa	Ma’lumotni kontekst bilan boğlab, sabab haqida gipoteza ilgari suriş	Ma’lumotni kuzatiş va talabalar bilan suhbat orqali töldiradi

Qaror va harakat	Mos pedagogik javobni tanlaş va amalga oşiriş	Mavzuni qayta tuşuntiradi, guruhlarni özgartiradi, topşiriqni qayta loyihalaydi
Tekşiruv va refleksiya	Qaror natijasini yangi ma’lumot asosida baholaş	Keyingi körsatkiçlarni oldingisi bilan soliştirib, qaror samarasini tahlil qiladi

Uçinçisi – strategik qarorlar: semestr yakunidagi ma’lumotlar asosida fan dasturi, baholaş tizimi va öquv materiallarini qayta körib çiqiş. Har bir daraja turli ma’lumot va turli könikmani talab qiladi, şu sababli kompetensiyani şakllantirişda uçala daraja ham qamrab olinişi lozim.

Kompetensiyani şakllantiriş uçun quyidagi şakllarni taklif etamiz. Birinçidan, real ma’lumotlar asosidagi keys-maşqlar: öqituvçiga öz fanidan anonimlaştirilgan platforma ma’lumotlari beriladi va undan siklning barça bosqiçlarini bosib ötiş söraladi. Ikkinçidan, kafedra miqyosidagi “ma’lumot uçraşuvlari”: öqituvçilar muntazam ravişda öz guruhlari ma’lumotlarini birgalikda tahlil qiladi, qarorlar va natijalarni muhokama etadi. E. Mandinach ta’kidlaganidek, ma’lumotlardan foydalaniş madaniyati individual emas, jamoaviy faoliyatda şakllanadi [5]. Uçinçidan, ta’lim analitikasi asoslarini malaka oşiriş va magistratura dasturlariga alohida modul sifatida kiritiş.

Ta’lim analitikasidan foydalanişning xavflarini ham e’tibordan çetda qoldirmaslik kerak. Körsatkiçlar maqsadga aylanib qolsa, öqituvçi va talaba öqişning mazmuniga emas, raqamlarga e’tibor qarata boşlaydi. Faqat ölçanadigan narsalarga tayaniş ijodkorlik, motivatsiya, qadriyatlar kabi muhim, ammo ölçaş qiyin bölgan natijalarni çetga surib qöyadi. Talabalar haqidagi ma’lumotlar maxfiyligi va ularni “past natijali” deb belgilab qöyiş orqali yuzaga keladigan salbiy ta’sir ham alohida etik masaladir. Şuning uçun kompetensiya tarkibida etik mulohaza yuritiş könikmasi ham bölişi zarur.

Xulosa. Raqamli öquv muhitida töplanayotgan ma’lumotlar öqituvçining pedagogik qarorlarini aniqroq va asosliroq qiliş uçun katta imkoniyat yaratadi, ammo bu imkoniyat öz-özidan röyobga çiqmaydi. Buning uçun öqituvçida savol qöyiş, talqin qiliş, pedagogik xulosa çiqariş, qaror qabul qiliş va natijani tekşirişni öz içiga olgan alohida kompetensiya şakllangan bölişi kerak. Taklif etilgan model bu kompetensiyani qarorlarning uç darajasi böyiça şakllantirişni közda tutadi. Modelni Xalqaro Nordik universiteti öqituvçilari bilan sinovdan ötkaziş keyingi tadqiqot vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati

1. Kayumova M.Ş. Oliy ta’lim muassasalarida blended learning va flipped classroom metodlarini joriy qiliş samaradorligi // International Nordic University Scientific Journal. – 2024. – № 2. – https://doi.org/10.5281/zenodo.11499445

2. Shavelson R.J. What is the basic teaching skill? // Journal of Teacher Education. – 1973. – Vol. 24, No. 2. – P. 144–151.

3. Siemens G., Long P. Penetrating the fog: analytics in learning and education // EDUCAUSE Review. – 2011. – Vol. 46, No. 5. – P. 30–40.

4. Gašević D., Dawson S., Siemens G. Let's not forget: learning analytics are about learning // TechTrends. – 2015. – Vol. 59, No. 1. – P. 64–71.

5. Mandinach E.B. A perfect time for data use: using data-driven decision making to inform practice // Educational Psychologist. – 2012. – Vol. 47, No. 2. – P. 71–85.

6. Mandinach E.B., Gummer E.S. What does it mean for teachers to be data literate: laying out the skills, knowledge, and dispositions // Teaching and Teacher Education. – 2016. – Vol. 60. – P. 366–376.

7. Wise A.F., Jung Y. Teaching with analytics: towards a situated model of instructional decision-making // Journal of Learning Analytics. – 2019. – Vol. 6, No. 2. – P. 53–69.

8. Kayumova M., Akbarova S., Azizova M., Hojiyeva I., Karimova F., Makhmudova F. Data Driven Teaching and Real Time Decision Making in Education Management // Proceedings of the 8th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (ICFNDS '24). – New York: ACM, 2024. – P. 756–763. – https://doi.org/10.1145/3726122.3726232

9. Kayumova M., Akbarova S., Azizova M., Hojiyeva I., Karimova F., Makhmudova F. Distributed Data Systems for Data Driven Decision Making in Education Management // Proceedings of the 8th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (ICFNDS '24). – New York: ACM, 2024. – P. 764–769. – https://doi.org/10.1145/3726122.3726233

10. Akbarova S., Kayumova M., Azizova M., Karimova F., Hojiyeva I. Intelligent Systems Applications in Inclusive Education Management: A Systematic Mapping Study // Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (ICFNDS '23). – New York: ACM, 2023. – P. 491–496. – https://doi.org/10.1145/3644713.3644785

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI TA’LIM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLAŞNING PEDAGOGIK-KVALIMETRIK MEZONLARI

Kayumova Mexribonu Şeraliyevna
Toşkent amaliy fanlar universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)
E-mail: kayumovamexribonu@gmail.com;

ANNOTATSIYA: Maqolada sun’iy intellekt asosidagi ta’lim xizmatlarini (SI-tyutorlar, moslaşuvçan öquv platformalari, avtomatik baholaş tizimlari) tanlaş va joriy etişda ularning pedagogik sifatini baholaş muammosi körib çiqilgan. Kvalimetriya tamoyillari asosida beş guruhdan iborat mezonlar tizimi, çeklovçi mezonni öz içiga olgan integral sifat körsatkiçi va baholaş tartibi taklif etilgan. Özbek tilidagi kontent sifati alohida mezon sifatida asoslangan.

KALIT SÖZLAR: *sun’iy intellekt, ta’lim xizmatlari, sifatni baholaş, pedagogik kvalimetriya, mezonlar tizimi, integral körsatkiç, ta’lim texnologiyalari ekspertizasi.*

Kiriş. Sönggi yillarda SI asosidagi ta’lim xizmatlari bozori juda tez kengaymoqda: suhbat şaklidagi SI-tyutorlar, öquvçi darajasiga moslaşadigan platformalar, yozma işlarni avtomatik tekşiruvçi tizimlar, til örganiş ilovalari va boşqalar. Özbekistonda SI texnologiyalarini rivojlantiriş strategiyasining qabul qilinişi [1] bu xizmatlarning ta’lim muassasalariga kirib kelişini yanada tezlaştiradi. Biroq ta’lim muassasasi yoki öqituvçi bunday xizmatni tanlaşda köpinça uning narxi, interfeysining qulayligi yoki reklama va’dalariga tayanadi. Xizmatning pedagogik sifati – u haqiqatan ham öqişga yordam beradimi, öquvçining mustaqil fikrlaşini rivojlantiradimi yoki uni almaştiradimi – kam hollarda tizimli baholanadi.

Bu muammo nazariy jihatdan ham dolzarb. O. Zawacki-Richter va hammualliflari oliy ta’limda SI qöllanilişiga oid tadqiqotlarni tizimli tahlil qilib, ularning aksariyatida pedagogik nuqtai nazar yetarli aks etmaganini körsatgan va “pedagoglar qayerda?” degan savolni qöygan [2]. Inklyuziv ta’lim boşqaruvida intellektual tizimlarning qöllanilişiga oid tadqiqotlarni tizimlaştirganimizda ham ularni joriy etişda texnik imkoniyatlar bilan bir qatorda pedagogik jihatlarni hisobga oliş zarurligiga e’tibor qaratgan edik [3]. Uşbu maqolaning maqsadi – SI asosidagi ta’lim xizmatlari sifatini baholaşning pedagogik-kvalimetrik mezonlarini işlab çiqişdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. YuNESKO generativ SI böyiça tavsiyalarida ta’limda foydalaniladigan SI vositalarini joriy etişdan oldin ularning pedagogik maqsadga mosligini, xavfsizligini va yoş xususiyatlariga muvofiqligini tekşiriş zarurligini ta’kidlaydi [4]. Yevropa Ittifoqining 2024-yilda qabul qilingan SI töğrisidagi reglamentida ta’limga kirişni belgilaş, öqiş natijalarini baholaş va imtihon jarayonini kuzatiş uçun qöllaniladigan SI tizimlari yuqori xavfli tizimlar toifasiga kiritilgan [5]. Yevropa Komissiyasining pedagoglar uçun axloqiy

yöriqnomasida esa SI vositasini tanlaşda öqituvçi beradigan savollar tizimi taklif etilgan.

W. Holmes, M. Bialik va C. Fadel ta’limda SI ni “SI bilan öqitiş”, “SI haqida öqitiş” va “SI ga tayyorlaş” yönalişlariga ajratib, har birining imkoniyat va xavflarini körsatadi. E. Kasneci va hammualliflari katta til modellarining ta’limdagi imkoniyatlari bilan birga ularning faktik xatolar, xolislik va öquvçining SI ga haddan taşqari tayanib qolişi kabi xavflarini tahlil qilgan. Ta’lim taşkilotlari boşqaruv tizimiga oid ISO 21001 standarti esa ta’lim xizmati sifatini öquvçi ehtiyojiga yönaltirilganlik nuqtai nazaridan baholaşni talab etadi.

Kvalimetriyada murakkab obyekt sifati xossalarning ierarxik daraxti orqali tavsiflanadi: umumiy sifat bir neça guruh xossalarga, ular esa ölçanadigan oddiy körsatkiçlarga ajratiladi, har bir körsatkiçga vazn koeffitsiyenti beriladi va natijada integral körsatkiç hisoblanadi. Tadqiqotda aynan şu tamoyildan, şuningdek, hujjatlar tahlili va pedagogik modellaştiriş metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Tahlil asosida SI asosidagi ta’lim xizmati sifatini baholaş uçun beş guruh mezon ajratildi (1-jadval). Mezonlarni tanlaşda xizmatning texnik körsatkiçlari emas, aynan uning öqiş jarayoniga ta’siri asos qilib olindi.

Didaktik moslik guruhida özbek tilidagi kontent sifati alohida körsatkiç sifatida ajratildi. Köplab SI xizmatlari asosan ingliz tilidagi ma’lumotlar asosida işlab çiqilgan bölib, özbek tilida javob berganda grammatik xatolar, notöğri atamalar yoki tarjima uslubidagi sun’iy jumlalar uçraşi mumkin.

1-jadval

SI asosidagi ta’lim xizmati sifatini baholaş mezonlari

Mezonlar guruhi	Körsatkiçlar
Didaktik moslik	Öquv maqsadi va natijalariga moslik; kontentning ilmiy töğriligi; özbek tilidagi javoblarning grammatik va terminologik töğriligi
Pedagogik boşqaruvçanlik	Öqituvçining xizmatni sozlaş va nazorat qiliş imkoniyati; tizim qarorlarining şaffofligi; öqituvçiga ma’lumot berişi
Öquvçiga yönaltirilganlik	Öquvçi darajasiga moslaşişi; qayta aloqa sifati; tayyor javob beriş örniga fikrlaşga undaşi
Etik-huquqiy xavfsizlik	Şaxsiy ma’lumotlar himoyasi; xolislik; yoş xususiyatlariga moslik; mualliflik huquqiga rioya
Samaradorlik dalillari	Mustaqil tadqiqot yoki sinov natijalari; foydalanuvçilar fikri; ta’lim muassasasidagi pilot sinov natijasi

Ona tilini öqitiş metodikasi nuqtai nazaridan bu jiddiy masala: öquvçi xato til namunasini töğri deb özlaştirib olişi mumkin. Şu sababli bu körsatkiç milliy ta’lim kontekstida eng muhimlaridan biri hisoblanadi.

Integral sifat körsatkiçini hisoblaş uçun quyidagi formulani taklif etamiz:

$$Q = K \cdot \Sigma\, w_i \cdot q_i,$$

bu yerda q_i – i-mezonlar guruhining 0 dan 1 gaça me’yorlaştirilgan bahosi, w_i – şu guruhning ekspert usulida aniqlangan vazn koeffitsiyenti ($\Sigma\ w_i = 1$), K – çeklovçi koeffitsiyent. Etik-huquqiy xavfsizlik guruhining bahosi belgilangan minimal çegaradan past bölsa, K = 0, aks holda K = 1 deb olinadi. Bu kvalimetriyadagi çeklovçi mezon tamoyiliga asoslanadi: boşqa körsatkiçlari qançalik yuqori bölmasin, öquvçi ma’lumotlarini himoya qilmaydigan yoki xolis bölmagan xizmat ta’lim jarayoniga joriy etilmasligi kerak.

Baholaş tartibi uç bosqiçdan iborat. Birinçi bosqiçda pedagog, fan mutaxassisi va axborot texnologiyalari mutaxassisidan iborat ekspert guruhi tuziladi va mezonlar vazni muassasa ehtiyojiga qarab aniqlanadi. Ikkinçi bosqiçda xizmat oldindan tayyorlangan test stsenariylari asosida sinovdan ötkaziladi: unga fan böyiça turli murakkablikdagi savollar, ataylab notöğri berilgan ma’lumotlar va özbek tilidagi topşiriqlar beriladi. Uçinçi bosqiçda xizmat çeklangan guruhda pilot tarzida qöllaniladi va öquvçilar hamda öqituvçilar fikri örganiladi. Faqat şundan söng xizmatni keng joriy etiş töğrisida qaror qabul qilinadi.

Xulosa. SI asosidagi ta’lim xizmatlari soni ortib borayotgan şaroitda ularni pedagogik sifat nuqtai nazaridan baholaş zarurati kuçaymoqda. Taklif etilgan mezonlar tizimi didaktik moslik, pedagogik boşqaruvçanlik, öquvçiga yönaltirilganlik, etik-huquqiy xavfsizlik va samaradorlik dalillarini qamrab oladi, integral körsatkiç esa çeklovçi mezon orqali xavfli xizmatlarning joriy etilişiga yöl qöymaydi. Oliy ta’lim muassasalarida SI xizmatlarini tanlaş böyiça içki reglament işlab çiqiş, milliy darajada esa ta’limda foydalaniladigan SI mahsulotlarini pedagogik ekspertizadan ötkaziş tizimini yaratiş maqsadga muvofiq. Mezonlar vaznini ekspert sörovi asosida aniqlaştiriş keyingi tadqiqotimiz vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati

1. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “2030-yilgaça sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantiriş strategiyasini tasdiqlaş töğrisida”gi PQ-358-son qarori // lex.uz.

2. Zawacki-Richter O., Marín V.I., Bond M., Gouverneur F. Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – where are the educators? // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2019. – Vol. 16. – Article 39.

3. Akbarova S., Kayumova M., Azizova M., Karimova F., Hojiyeva I. Intelligent Systems Applications in Inclusive Education Management: A Systematic Mapping Study // Proceedings of the 7th International Conference on Future

Networks and Distributed Systems (ICFNDS ’23). – New York: ACM, 2023. – P. 491–496. – https://doi.org/10.1145/3644713.3644785

4. UNESCO. Guidance for generative AI in education and research. – Paris: UNESCO, 2023.

5. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act) // Official Journal of the European Union. – 2024.

PEDAGOGLARNING SUN'IY INTELLEKT KOMPETENSIYASINI MALAKA OŞIRIŞ TIZIMIDA RIVOJLANTIRIŞNING ANDRAGOGIK MODELI (YUNESKO RAMKASI ASOSIDA)

Kayumova Mexribonu Şeraliyevna
Toşkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Özbek tilini öqitiş va ta'lim metodikasi"
kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari böyiça
falsafa doktori (PhD)
E-mail: kayumovamexribonu@gmail.com;

ANNOTATSIYA: Maqolada YuNESKO tomonidan 2024-yilda e'lon qilingan öqituvçilar uçun sun'iy intellekt kompetensiyalari ramkasi tahlil qilingan va uning asosida malaka oşiriş tizimida pedagoglarning sun'iy intellekt kompetensiyasini rivojlantirişning andragogik modeli taklif etilgan. Ramkaning beş ölçovi malaka oşiriş kursi mazmuniga, uç bosqiçli rivojlaniş darajasi esa kursning auditoriya, amaliyot va hamjamiyat bosqiçlariga moslaştirilgan. Modelni joriy etişning pedagogik şartlari asoslab berilgan.

KALIT SÖZLAR: *sun'iy intellekt kompetensiyasi, YuNESKO ramkasi, andragogika, malaka oşiriş, kattalar ta'limi, sun'iy intellekt etikasi, pedagogik model.*

Kiriş. Generativ sun'iy intellekt (SI) vositalari ta'lim jarayoniga öqituvçilarning özi kutganidan ança tez kirib keldi. Talabalar bu vositalardan allaqaçon faol foydalanmoqda, köplab pedagoglar esa ular bilan işlaşni rasmiy tayyorgarliksiz, öz tajribasi yoki hamkasblari maslahati orqali örganmoqda. Özbekistonda 2030-yilgaça SI texnologiyalarini rivojlantiriş strategiyasining qabul qilinişi [1] bu texnologiyalarning barça sohalarga, jumladan, ta'limga kirib borişi davlat siyosati darajasiga kötarilganini körsatadi. Raqamlaştiriş va SI ga asoslangan innovatsion yondaşuvlar böyiça avvalgi izlanişimizda ham bu jarayon pedagogdan yangi kasbiy sifatlarni talab etişi qayd etilgan edi [2].

Şunday şaroitda malaka oşiriş tizimining vazifasi ham özgaradi. Pedagogni bitta-ikkita SI dasturi bilan taniştiriş yetarli emas: u SI ni öz fani mazmuni, öqitiş usullari va baholaş tizimi bilan boğlay olişi, uning etik oqibatlarini tuşunişi va öz kasbiy rivojlanişida undan ongli foydalana olişi lozim. YuNESKO tomonidan 2024-yilda e'lon qilingan öqituvçilar uçun SI kompetensiyalari ramkasi [3] aynan şu yaxlit yondaşuvni taklif etadi. Biroq ramka xalqaro darajadagi yönaltiruvçi hujjat bölib, uni milliy malaka oşiriş tizimining tuzilmasi va tinglovçilarning kattalar sifatidagi öziga xosligiga moslaştiriş alohida ilmiy-metodik işni talab qiladi. Uşbu maqolaning maqsadi – şunday moslaştirilgan andragogik modelni asoslaşdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. YuNESKO ramkasi öqituvçining SI kompetensiyasini beş ölçovda tavsiflaydi: inson markazidagi yondaşuv, SI etikasi, SI asoslari va uni qöllaş, SI pedagogikasi hamda kasbiy rivojlaniş uçun SI. Har bir

ölçov uç bosqiçda – özlaştiriş, çuqurlaştiriş va yaratiş darajalarida rivojlanadi, natijada jami 15 ta kompetensiya ajratiladi [3]. Ramkaning muhim jihati şundaki, unda texnik könikmalar birinçi öringa qöyilmagan: inson markazidagi yondaşuv va etika ramkaning boşlanğiç nuqtasi sifatida körsatilgan.

SI savodxonligi tuşunçasini tizimlaştirgan D. Ng va hammualliflari uni SI ni biliş va tuşuniş, qöllaş, baholaş va yaratiş hamda etik jihatlarni anglaş kabi tarkibiy qismlar orqali oçib beradi [4]. P. Mishra va M. Koehler taklif etgan TPACK modeli texnologiya, pedagogika va fan mazmuni bilimlarining özaro kesişmasini öqituvçi kasbiy bilimining asosi sifatida körsatadi [5]. I. Çelik esa bu modelni SI şaroitiga moslab, unga etik baholaş komponentini qöşgan “Intelligent-TPACK” tuzilmasini empirik jihatdan asoslagan [6]. Bu işlar SI kompetensiyasini faqat dasturdan foydalaniş könikmasi sifatida emas, fan mazmuni va pedagogik qaror bilan boğliq murakkab kompetensiya sifatida qaraş zarurligini tasdiqlaydi.

Malaka oşiriş tinglovçisi – katta yoşli, kasbiy tajribaga ega mutaxassis. M. Noulz asoslagan andragogik tamoyillarga köra, bunday öquvçi öz tajribasiga tayanadi, örganilayotgan bilimning amaliy foydasini körişni istaydi va öqiş jarayonida mustaqil bölişga intiladi [7]. D. Kolbning tajribaviy öqiş sikli esa aniq tajriba, uni tahlil qiliş, umumlaştiriş va yangi vaziyatda sinab köriş bosqiçlari orqali kattalarning öqiş jarayonini tuşuntiradi [8]. Tadqiqotda hujjatlarni tahlil qiliş, qiyosiy tahlil va pedagogik modellaştiriş metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. «Kasbiy ta’limda pedagogik va andragogik yondaşuvlar» moduli böyiça malaka oşiriş maşğulotlaridagi suhbatlar şuni körsatdiki, tinglovçilarning SI ga munosabati va u bilan işlaş tajribasi keskin farq qiladi: ayrimlari undan kundalik iş jarayonida foydalanadi, boşqalari esa uni deyarli işlatmagan va talabalar tomonidan suiiste’mol qilinişidan xavotirda. Bu holat barça tinglovçilar uçun bir xil mazmundagi kurs samarasiz ekanini körsatadi. Şu sababli taklif etilayotgan model tört blokdan iborat: diagnostik, mazmuniy, taşkiliy va baholovçi.

Diagnostik blok kursdan oldin tinglovçining SI ga munosabati, undan foydalaniş tajribasi va kasbiy ehtiyojlarini aniqlaşga qaratilgan. Natijaga köra tinglovçilar ramkadagi darajalarga mos guruhlarga ajratiladi yoki ular uçun individual öquv yönalişi belgilanadi. Mazmuniy blokda ramkaning beş ölçovi malaka oşiriş kursi mavzulariga aylantiriladi (1-jadval).

1-jadval

YuNESKO ramkasi ölçovlarining malaka oşiriş kursi mazmuniga moslaştirilişi

Ramka ölçovi	Kurs mazmuni	Andragogik şakl

Inson markazidagi yondaşuv	Ta’limda SI va inson örni, pedagogning qaror uçun javobgarligi	Tinglovçi tajribasiga tayangan muammoli munozara
SI etikasi	Maxfiylik, mualliflik, akademik halollik, algoritmik xolislik	Real kasbiy vaziyatlar asosidagi keyslar
SI asoslari va qöllanilişi	Generativ modellarning işlaş tamoyili, çeklovlari, sörov tuziş	Öz fani böyiça amaliy laboratoriya
SI pedagogikasi	Maşğulot va baholaş topşiriqlarini SI şaroitida qayta loyihalaş	Mikro-dars, özaro kuzatuv va tahlil
Kasbiy rivojlaniş uçun SI	Öz faoliyatini tahlil qiliş, hamkasblar bilan hamkorlik	Refleksiv portfolio, onlayn kasbiy hamjamiyat

Taşkiliy blokda ramkaning uç darajasi kursning uç bosqiçiga mos qöyiladi. Özlaştiriş darajasi kursning auditoriya bosqiçida şakllantiriladi: tinglovçi SI ning imkoniyat va çeklovlari bilan tanişadi, ularni öz fani misolida sinab köradi. Çuqurlaştiriş darajasi kursdan keyingi amaliyot bosqiçiga töğri keladi: tinglovçi kursda loyihalagan maşğulotni öz muassasasida ötkazadi va natijasini tahlil qiladi. Yaratiş darajasi esa kasbiy hamjamiyat bosqiçida namoyon böladi: tinglovçi öz tajribasini hamkasblari bilan bölişadi, metodik işlanma yaratadi va uni boşqalar uçun oçiq qiladi. Bunday tuzilma D. Kolb siklining barça bosqiçlarini qamrab oladi va malaka oşirişni bir martalik tadbirdan uzluksiz jarayonga aylantiradi.

Baholovçi blokda an’anaviy yakuniy test örniga kasbiy portfolio qöllaniladi. Portfolioga SI yordamida loyihalangan maşğulot işlanmasi, unda SI dan foydalanişning etik tahlili va maşğulotdan keyingi refleksiv qayd kiritiladi. Pedagoglar kasbiy rivojlanişining samaradorligi mazmunning fanga yönaltirilganligi, faol öqiş va davomiylikka boğliqligini hisobga olib [9], kursdan 3–6 oy ötgaç tinglovçining amaliy faoliyati qayta kuzatiladi.

Modelni joriy etiş uçun bir qator pedagogik şartlar zarur. Birinçidan, kurs öqituvçilarining özi ramkaning kamida çuqurlaştiriş darajasidagi kompetensiyalarga ega bölişi kerak. Ikkinçidan, SI etikasi alohida mavzu sifatida emas, har bir maşğulotda kesib ötuvçi masala sifatida körilişi lozim: maxfiylik, mualliflik, akademik halollik va xolislik masalalari tinglovçining real kasbiy vaziyatlari asosida muhokama qilinadi. Uçinçidan, tinglovçilarga kursdan keyin ham foydalaniş mumkin bölgan SI vositalari va metodik resurslarga kiriş imkoniyati yaratilişi kerak.

Xulosa. YuNESKOning öqituvçilar uçun SI kompetensiyalari ramkasi pedagogning SI kompetensiyasini texnik könikma bilan çeklamasdan, inson markazidagi yondaşuv, etika, pedagogika va kasbiy rivojlanişni qamrab olgan yaxlit tizim sifatida taqdim etadi. Bu ramkani milliy malaka oşiriş tizimiga tatbiq etişda

andragogik yondaşuv hal qiluvçi ahamiyatga ega, çunki tinglovçining tajribasi, ehtiyoji va SI ga munosabati juda xilma-xil. Taklif etilgan tört blokli model ramka ölçovlarini kurs mazmuniga, rivojlaniş darajalarini esa kursning auditoriya, amaliyot va hamjamiyat bosqiçlariga moslaştiradi. Modelni malaka oşiriş kurslarida sinovdan ötkaziş va uning samaradorligini baholaş keyingi tadqiqotlarimiz vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati

1. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “2030-yilgaça sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantiriş strategiyasini tasdiqlaş töğrisida”gi PQ-358-son qarori // lex.uz.

2. Xakimova M.F., Kayumova M.Ş. Ta’lim, fan va işlab çiqariş integratsiyasida olima ayollarning roli: raqamlaştiriş va sun’iy intellektdan foydalangan holda innovatsion yondaşuvlar // Konferensiya materiallari. – 2025. – https://doi.org/10.5281/zenodo.14967960

3. UNESCO. AI competency framework for teachers. – Paris: UNESCO, 2024.

4. Ng D.T.K., Leung J.K.L., Chu S.K.W., Qiao M.S. Conceptualizing AI literacy: an exploratory review // Computers and Education: Artificial Intelligence. – 2021. – Vol. 2. – 100041.

5. Mishra P., Koehler M.J. Technological pedagogical content knowledge: a framework for teacher knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054.

6. Celik I. Towards Intelligent-TPACK: an empirical study on teachers’ professional knowledge to ethically integrate artificial intelligence (AI)-based tools into education // Computers in Human Behavior. – 2023. – Vol. 138. – 107468.

7. Knowles M.S., Holton E.F., Swanson R.A. The Adult Learner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development. 8th ed. – London; New York: Routledge, 2015.

8. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. 2nd ed. – Upper Saddle River: Pearson Education, 2015.

9. Desimone L.M. Improving impact studies of teachers’ professional development: toward better conceptualizations and measures // Educational Researcher. – 2009. – Vol. 38, No. 3. – P. 181–199.

БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

РЕЗУЛЬТАТЫ ОПЕРАТИВНОГО ЛЕЧЕНИЯ ПЕРВИЧНОГО ГИПЕРПАРАТИРЕОЗА У ДЕТЕЙ

Рихсиева Назира Тахировна
Университет Алфраганус

Актуальность. Первичный гиперпаратиреоз (ПГПТ) у детей является редким эндокринным заболеванием, характеризующимся повышенной секрецией паратиреоидного гормона, нарушением кальций-фосфорного обмена и поражением костной и мочевыделительной систем. Особую актуальность представляет своевременная диагностика заболевания и выбор оптимальной тактики хирургического лечения. Паратиреоидэктомия является основным методом патогенетического лечения ПГПТ, однако оценка её эффективности требует изучения как ближайших, так и отдалённых результатов.

Ключевые слова: первичный гиперпаратиреоз, дети, паратиреоидэктомия, паратиреоидный гормон.

Цель исследования. Изучить динамику гормональных и биохимических показателей у детей с первичным гиперпаратиреозом после паратиреоидэктомии в ближайшие и отдалённые сроки наблюдения.

Материалы и методы исследования. Проведён анализ клинико-лабораторных данных 90 детей с первичным гиперпаратиреозом, находившихся на обследовании и лечении в РСНПМЦЭ в период 2001–2016 гг. В зависимости от проведённого лечения пациенты были распределены на основную группу (50 детей), которым выполнена паратиреоидэктомия, и группу сравнения (40 детей), не получавших хирургического лечения. Оценивали концентрации общего и ионизированного кальция, фосфора, паратиреоидного гормона (ПТГ), щелочной фосфатазы и 25(OH)-витамина D в крови, а также показатели кальция и фосфора в моче. Ближайшие результаты оценивали через 1, 3 и 6 месяцев, отдалённые — через 1, 5 и 10 лет после лечения.

Результаты исследования. До операции гиперкальциемия выявлена у 98% детей основной группы, повышение уровня ПТГ — у 94%, ионизированного кальция — у 88%, щелочной фосфатазы — у 78% пациентов. Через месяц после паратиреоидэктомии отмечено достоверное снижение общего кальция крови с 2,81±0,11 до 2,33±0,09 ммоль/л ($p<0,01$). К третьему месяцу показатели кальция, фосфора, ионизированного кальция и щелочной фосфатазы приблизились к значениям контрольной группы. Уровень ПТГ снизился с 81,7±3,3 до 60,4±2,2 пг/мл через 3 месяца после операции ($p<0,01$). Также наблюдалась нормализация экскреции кальция и фосфора с мочой.

При отдалённом наблюдении через 1, 5 и 10 лет после операции сохранялась положительная динамика основных показателей кальций-фосфорного обмена. Через 10 лет уровень общего кальция составил 2,33±0,05 ммоль/л, ПТГ — 60,3±0,02 пг/мл, щелочной фосфатазы — 0,76±0,02 мкм/л, что свидетельствует о стойком биохимическом эффекте хирургического лечения.

В отличие от основной группы, у детей, не перенёсших паратиреоидэктомию, при длительном наблюдении сохранялись нарушения минерального обмена: гиперкальциемия, повышение ПТГ и щелочной фосфатазы, снижение уровня фосфора и 25(OH)-витамина D. Это свидетельствует о прогрессировании метаболических нарушений при отсутствии патогенетического лечения.

Заключение. Паратиреоидэктомия у детей с первичным гиперпаратиреозом обеспечивает выраженную положительную динамику гормональных и биохимических показателей уже в первые месяцы после операции. Сохранение нормальных показателей кальций-фосфорного обмена и уровня ПТГ в течение 10 лет подтверждает эффективность хирургического лечения в отдалённом периоде. Полученные результаты обосновывают необходимость своевременной диагностики ПГПТ и проведения хирургического лечения по соответствующим показаниям с последующим длительным динамическим наблюдением.

ОЦЕНКА КЛИНИЧЕСКИХ ПРОЯВЛЕНИЙ, КАЧЕСТВА ЖИЗНИ И КОГНИТИВНЫХ НАРУШЕНИЙ У ПАЦИЕНТОК С ГЕСТАЦИОННЫМ ПЕРВИЧНЫМ ГИПЕРПАРАТИРЕОЗОМ

Рихсиева Назира Тахировна
Кафедра внутренних болезней
Университета Алфраганус,
Республика Узбекистан, г. Ташкент.

Аннотация. Первичный гиперпаратиреоз (ПГПТ), впервые выявленный во время беременности, может сопровождаться выраженными соматическими проявлениями, нарушениями психоэмоционального состояния и снижением качества жизни пациенток. Особую актуальность приобретает оценка нейрокогнитивных функций и психологического благополучия беременных женщин с данной патологией. Использование международных стандартизированных инструментов позволяет комплексно оценить клинические проявления заболевания и его влияние на повседневную жизнедеятельность.

Ключевые слова. гестационный первичный гиперпаратиреоз, беременность, качество жизни, PAS, WHOQOL-BREF, MMSE, когнитивные функции, нейрокогнитивные нарушения

Цель исследования. Оценить качество жизни, выраженность клинических симптомов и когнитивные функции пациенток с гестационным первичным гиперпаратиреозом с использованием опросников PAS, WHOQOL-BREF и теста MMSE.

Материалы и методы исследования. Обследованы 20 женщин репродуктивного возраста: 10 беременных пациенток с впервые выявленным первичным гиперпаратиреозом (основная группа) и 10 здоровых женщин соответствующего возраста (контрольная группа). Средний возраст пациенток основной группы составил 30,2 ± 1,4 года. Проводились клинические, биохимические, гормональные и инструментальные исследования. Для оценки симптоматики применялся опросник PAS, качества жизни — WHOQOL-BREF, когнитивного статуса — Mini-Mental State Examination (MMSE). Статистическая обработка проводилась с использованием программ Microsoft Excel и Statistica 6.0. Для оценки взаимосвязей применялся коэффициент корреляции Спирмена. Статистически значимыми считались различия при $p<0,05$.

Результаты исследования. У пациенток основной группы отмечалась высокая частота клинических проявлений ПГПТ: выпадение волос — 100%, ломкость ногтей — 80%, жажда — 70%, боли в костях и суставах — 70%, полиурия — 60%, характерная «утиная походка» — 60%. Патологические переломы наблюдались у 20% пациенток, рецидивный нефролитиаз — у 20%.

По результатам WHOQOL-BREF установлено достоверное снижение показателей качества жизни по всем исследуемым доменам у пациенток основной группы по сравнению с контрольной ($p<0,005$).

Показатели когнитивных функций по шкале MMSE в основной группе составили 3,3 ± 0,6 балла, тогда как в контрольной группе — 28,7 ± 3,3 балла ($p<0,0001$).

По данным опросника PAS, выраженность клинической симптоматики у пациенток с ПГПТ была значительно выше по сравнению с контрольной группой: 85,6 ± 8,5 против 3,6 ± 0,3 балла соответственно ($p<0,0001$).

Выявлена статистически значимая взаимосвязь между показателями качества жизни, когнитивными функциями и выраженностью клинических проявлений заболевания ($p<0,005$).

Выводы. Применение международных опросников PAS, WHOQOL-BREF и теста MMSE позволяет комплексно оценивать клинические проявления, качество жизни и когнитивный статус пациенток с гестационным первичным гиперпаратиреозом. У обследованных пациенток выявлено выраженное снижение показателей качества жизни и когнитивных функций на фоне высокой интенсивности клинической симптоматики. Полученные результаты свидетельствуют о целесообразности включения данных инструментов в комплексную клинико-функциональную оценку состояния пациенток с ПГПТ и мониторинг эффективности проводимого лечения.

Библиография.

1. WHO, 2015. World Health Organization, World Report on Ageing and Health. Access date, 01 July 2021, http://apps.who.int/iris/bitstream/10665/186463/1/9789240694811_eng.pdf.

2. Chang YC, Yao G, Hu SC, Wang JD. Depression Affects the Scores of All Facets of the WHOQOL-BREF and May Mediate the Effects of Physical Disability among Community-Dwelling Older Adults. //PLoS One. 2015 May 26;10(5):e0128356. doi: 10.1371/journal.pone.0128356.

3. Traczyk J, Dębiec-Bąk A, Skrzek A, Stefańska M. Assessment of the Psychophysical Sphere and Functional Status of Women Aged 75-90 Living Alone and in Nursing Homes. //Int J Environ Res Public Health. 2021 Aug 27;18(17):9028. doi: 10.3390/ijerph18179028.

4. Vu LG, Nguyen LH, Nguyen CT, Vu GT, Latkin CA, Ho RCM, Ho CSH. Quality of life in Vietnamese young adults: A validation analysis of the World Health Organization's quality of life (WHOQOL-BREF) instrument. //Front Psychiatry. 2022 Dec 20;13:968771. doi: 10.3389/fpsyt.2022.968771.

5. Mokrysheva NG, Eremkina AK, Mirnaya SS, Krupinova JA, Voronkova IA, Kim IV, Beltsevich DG, Kuznetzov NS, Pigarova EA, Rozhinskaya LY, Degtyarev MV, Egshatyan LV, Rumiantsev PA, Andreeva EN, Antsiferov MB, Markina NV, Kryukova IV, Karonova TL, Lukyanov SV, Sleptcov IV, Chagai NB, Melnichenko GA, Dedov II. [The clinical practice guidelines for primary hyperparathyroidism, short version]. //Probl Endokrinol (Mosk). 2021 Aug 19;67(4):94-124. Russian. doi: 10.14341/probl12801.

SEMIZLIK VA D VITAMINI YETISHMAYDIGAN REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA BEPUSHTLIKNING OLDINI OLISH

Aziza Baxronovna Nazarova
Buxoro davlat tibbiyot instituti assistenti
nazarovaaziza427@gmail.com

Annotatsiya. Bepushtlik - bu ajralish, stress va unumdorlikning pasayishi kabi ko'plab omillar salbiy ta'sir ko'rsatadigan jiddiy holat bo'lib, bu bepusht juftliklarni davolash tufayli katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi (V.I. Kulakov, B.V. Leonov, 2018). Ko'p oilalar keng tarqalgan va an'anaviy ravishda rag'batlantiriladigan Markaziy Osiyoda farzandsizlik katta baxtsizlik deb hisoblanadi va ko'pincha oilalarning buzilishiga olib keladi. (G.A. Ixtiyarova, Z.Sh. Qurbonova, 2020). JSST ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlardagi ixtisoslashgan klinikalarda bepushtlik holatlarining 22% erkaklar bilan, 32% ayollar bilan bog'liq. 21% hollarda kasalliklar birlashtirilgan, 14% hollarda esa sababi noma'lum (Lokshin V.N., Dzhusubalieva T.M., 2019). Vasilevskaya L.N. (2018) va Podzolkova N.M. (2019) bepushtlikning uchrash chastotasi 10-20% ni tashkil qilishini ta'kidlaydilar, ayollar bepushtligi 50% hollarda, erkaklar bepushtligi 40% hollarda va aralash shakllar 10% hollarda uchraydi.

Endokrin (gormonal) kasalliklar tuxumdon patologiyasi (tuxumdon charchoqligi, polikistik tuxumdon sindromi va boshqalar) va boshqa endokrin (gipotalamus, gipofiz bezi, buyrak usti bezlari, qalqonsimon bez) va endokrin bo'lmagan organlar (jigar, buyraklar va boshqalar) natijasida yuzaga kelishi mumkin. Metabolik kasalliklar, ruhiy stress va boshqa omillar endokrin bepushtlikka olib kelishi mumkin. Sababidan qat'i nazar, ovulyatsiya mexanizmining buzilishi (anovulyatsiya) har doim asosiy omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: bepushtlik, D vitamini, semizlik, reproduktiv salomatlik.

Maqsad: Semizlik tufayli D vitamini metabolizmi buzilgan va bepushtlik bilan og'rigan reproduktiv yoshdagi ayollarning holatini aniqlash uchun so'rovnomadan foydalanish.

Materiallar va usullar: Semizlik tufayli bepushtlik bilan og'rigan reproduktiv yoshdagi ayollar ambulatoriya yozuvlaridan aniqlandi va konsultatsiyaga taklif qilindi. O'lchovlar standart tibbiy tarozilar yordamida amalga oshirildi. Jinsiy organlarning ultratovush tekshiruvi, psixologik holati, ovqatlanishi, laboratoriya tekshiruvlari va zardobdagi 25(OH)D ni aniqlash, shuningdek, tegishli mutaxassislar (akusher-ginekolog) bilan maslahatlashuvlar o'tkazildi.

Natijalar. Ambulatoriya tekshiruvi va so'rovnoma so'rovi davomida reproduktiv yoshdagi 150 ta ortiqcha vaznli va semiz bepusht ayollarda quyidagi alomatlar aniqlandi: umumiy zaiflik (30%), xavotir (25%), uyqu buzilishi yoki uyqusizlik (35%) va libidoning pasayishi (4%). BMI tahlili quyidagilarni aniqladi: ortiqcha vazn (20%), 1-sinf semizlik (42%), 2-sinf semizlik (28%) va 3-sinf semizlik

(10%). Bizning kuzatishlarimizda reproduktiv yoshdagi ayollarda endokrin bepushtlikning asosiy omillari PCOS (24 ta holat, 33,3%), giperprolaktinemiya (19 ta holat, 26,4%) va giperandrogenizm (18 ta holat, 25%) edi. Barcha ayollarda gormonal profillar o'rganildi, jumladan, gonadotrop, steroid va qalqonsimon bez gormonlari darajasi (FSH, LH, PRL, testosteron, estradiol, progesteron, TSH, T3 va T4) aniqlandi. Laboratoriya diagnostikasi ma'lumotlari: FSH - 1 faza 25-30 mIU / ml -7%, 2 faza 15-18 mIU / ml-3%, LH - 1 faza 34-40 mIU / ml-4%, 2 faza 26-30 mIU / ml -6%, PRL 35-40 ng / ml-5%, testosteron 4-8 nmol / l-5%, estradiol 1 faza - 20-50 pmol / l - 11%, progesteron 1 faza 0,2-0,8 nmol / l - 9%, TSH - 8,0-14 mIU / l-13%, T3 - 0,8 -2 pmol / l - 7%, T4 - 0,1- 0,5 ng/dL - 12%.

Xulosa: 1. Ma'lumotlar reproduktiv yoshdagi ortiqcha vaznli va semiz ayollarda bepushtlikning asosiy omillarini aniqlashga yordam beradi va shuningdek, ushbu guruhda birlamchi profilaktika tamoyillarini ishlab chiqish imkonini beradi.
2. Tadqiqot natijalarini amaliy sog'liqni saqlashga tatbiq etish reproduktiv yoshdagi ayollar orasida bepushtlikni kamaytirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Von Websky K, Hasan AA, Reichetzeder C, Tsuprykov O, Tsuprykov O, Hocher B. D vitaminining homiladorlik bilan bog'liq kasalliklarga va nasl berish natijalariga ta'siri. J Steroid Biochem Mol Biol (2018) 180:51–64. doi:10.1016/j.jsbmb.2017.11.008
2. Kosygina AV, Vasyukova OV Semizlik patogenezida yangilik: adipokinlar – yog 'to'qimalarining gormonlari // Endokrinologiya muammolari. - 2009. - 55-jild. - № 1. - 44-50-betlar.
3. Kovaleva Yu.V. Semizlikning hayz ko'rish va reproduktiv kasalliklar rivojlanishidagi roli // Rossiya akusher-ginekolog byulleteni. - 2014. - V. 14. - № 2. - 43-51-betlar.
4. AB Nazarova Ayollar reproduktiv tizimida D vitaminining roli. Amerika bolalar tibbiyoti va sog'liqni saqlash fanlari jurnali. (2993-2149). 1-jild, 50-54-betlar.
5. Najmutdinova, D. K. Semiz ayollarda D vitamini yetishmasligining metabolik parametrlarga ta'siri / D. K. Najmutdinova, D. A. Urunbaeva, N. G. Sadikova, K. E. Turdieva. - Matn: to'g'ridan-to'g'ri // Yosh olim. - 2020. - № 4 (294). -B. 204-209.
6. AB Nazarova. Semizlik fonida reproduktiv yoshdagi ayollarda D vitamini metabolizmining xususiyatlari. Markaziy Osiyo tibbiyot va tabiiy fanlar jurnali, (2023) 64-66.

VITAMIN D AND REPRODUCTIVE HORMONE STATUS IN WOMEN OF REPRODUCTIVE AGE

Nazarova Aziza Bakhronovna
Assistant of the Bukhara State Medical Institute
nazarovaaziza427@gmail.com

